

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SH.E.TOSHTUROV

**Tarix o'qitish jarayonini
loyihalash fanidan
amaliy mashg'ulotlar
(metodik qo'llanma)**

Navoiy-2014

Tuzuvchi: Sh. Toshturov

Tarix o'qitish jarayonini loyihalash fanidan amaliy mashg'ulotlar.
metodik qo'llanma.-N.: 2013, 66 b.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi Navoiy davlat pedagogika instituti Ilmiy kengashining 2013 yil 28 dekabr 5- sonli qarori bilan 5110600- "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi III kursi talabarlari uchun "Tarix o'qitish jarayonini loyihalash" fanidan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishga tavsiya etilgan.

Metodik qo'llanma 5110600-Tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi III kurs talabalariga "Tarix o'qitish jarayonini loyihalash" fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga mo'ljallangan. Qo'llanmada talabalar uchun amaliy mashg'ulotni tashkil etish jarayonida bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, yangi bilimlarni qidirish, namuna bo'yicha harakatlarni bajarish malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi, turli eksperimental topshiriqlari berilib, loyiha asosida tashkil etilayotgan mavzu yuzasidan metodik ko'rsatma va maslahatlar beradi. Tarix darsliklardagi mavzularni loyiha metodi asosida o'qitishda namuna sifatida xizmat qiladi.

Ushbu metodik qo'llanmadan umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Muharrir:

dots. R.Rajabov

Taqrizchilar:

Navoiy davlat Konchilik instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi Raupov X.X

Navoiy davlat pedagogika instituti "Umumiy tarix" kafedrası tarix fanlari nomzodi, dotsent Tolibov R.N

Navoiy shahar 16-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi Sattorova D.

MUNDARIJA

<i>1-amaliy mashg'ulot:</i> Loyiha metodi asosida o'qitish tuzilmasi va tizimi.....	4
<i>2-amaliy mashg'ulot:</i> Umumta'lim maktablarining 5-sinf tarix darslarida loyiha metodi asosida darslarni tashkil etish	11
<i>3-amaliy mashg'ulot:</i> Umumta'lim maktablarining 6-sinf tarix darslarini loyihalash	16
<i>4-amaliy mashg'ulot:</i> Umumta'lim maktablarining 7-sinf tarix darslarini loyiha metodi asosida o'qitishning maqsadlari..	23
<i>5-amaliy mashg'ulot:</i> Umumta'lim maktablarining 8-sinf tarix darsi mashg'ulotlarida loyiha metodi texnologiyalari.....	29
<i>6-amaliy mashg'ulot:</i> Umumta'lim maktablarining 9-sinf tarix darslarida o'quvchilarni loyiha metodi asosida o'qitishning mazmun mohiyati	37
<i>7-amaliy mashg'ulot:</i> Tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini tashkil etishda loyiha metodi foydalanish	44
<i>8-amaliy mashg'ulot:</i> Maktab tarix ta'limida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi	50
<i>9-amaliy mashg'ulot:</i> Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tarix darslarida loyiha metodi asosida dars mashg'ulotlarini o'tkazish.....	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	64

1– amaliy mashg'ulot: Loyiha metodi asosida o'qitish tuzilmasi va tizimi

Reja:

1. Loyihalash jarayoni va uning ta'limiy mazmuni, o'quv loyihasining metodik pasporti.
2. Loyihalashtirish faoliyatini bajarish bosqichlari
3. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma
4. Loyihalar ekspertizasi, loyiha ishlarini baholash tizimi

Tayanch iboralar: innovatsion texnologiya, loyiha metodi, tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, texnologik xarita, loyiha ekspertizasi.

Hozirgida ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan, jahon pedagogikasining ilg'or metodlaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan bo'lib, loyiha metodi ta'lim ilg'or usullarini o'zida mujassamlashtirgan. Loyiha metodidan tarix fani o'qituvchisi o'quv mashg'uloti jarayonida mavjud tajribani o'zlashtirish va ta'limning barcha bosqichlarida qo'llashdek muhim vazifa turadi. Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axborotini etkazish vositasi va yo'llarini aniqlash usulidir. Tarix ta'limini loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualari o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O'quv loyihalar usuli ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o'zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin. Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhliy asosda amalga oshiriladi. Har ikki yo'nalishning ijobiy va afzallik xususiyatlari bor. Tarix fanini loyihalash ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi, talabalar loyiha ustida ishlashda loyiha rejasi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini

amalga oshiriladi. Natijada qatnashchilarda loyihani bajarilishi o'zining faoliyatiga bog'liq ekani tushunchasini anglash yuqori mas'uliyat hissini yuzaga keltiradi; loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida fikrning tug'ilishidan yakuniy refleksiyagacha o'quvchilar tajriba orttiradilar; o'quvchilarda eng muhim o'quv ko'nikma va malakalari (tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish) shakllantirish to'la boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'quv loyihasining metodik pasporti bu – o'quv loyihasining mazmun-mohiyatidan kutiladigan maqsadi, o'quv dasturidagi o'rni to'g'risida qisqacha tavsif hisoblanadi. O'quv loyihasining metodik pasporti quyidagilarni o'zida aks ettiradi: fan predmetining o'quv rejasidagi mavzular, predmetning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini, o'quv-pedagogik vazifalarni, o'quvchilarning yoshi xususiyatlaridan kelib chiqib o'quv loyiha topshirig'ini, loyihaning bajarilish muddatini va o'quv loyihasining ish rejimi. Tadqiqot loyihasi pasporti mualliflar va loyiha rahbari tomonidan to'ldirilib, unda o'quv loyihasining nomi, loyihaning maqsadi va vazifalari, loyiha muallifi, loyiha rahbari va konsultantlari, loyiha turi aks ettiriladi. O'quv loyiha faoliyatida o'quvchilarda tadqiqotchilik, ijodiy, o'yin, axborot izlanish faoliyatlarini qamrab olib, ijtimoiy ehtiyoj qiziqishlar hisobga olinadi, natijaga aniq yo'naltiriladi.

Amaliy mashg'ulotda loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti texnologiyasi tahlil qilinadi.

Loyiha usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va mazmuni</i>	<i>F a o l i y a t</i>	
	<i>ta'lim beruvchi</i>	<i>ta'lim oluvchilar</i>
Tayyorgarlik	Loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta'lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to'g'risida ma'lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini	Guruhga birlashadilar, loyiha mavzusini tanlaydilar va muhokama qiladilar. Kerak bo'lganda qo'shimcha axborotlar oladilar. Maqsadni aniqlaydilar, loyiha bo'yicha ish natijalarini muhokama qiladilar

	sanab o'tadi	
1 - bosqich Rejalashtirish	G'oyalarni taklif etadi, takliflarni aytadi. Axborot manbai va uning yig'ish usullari va tahlilini tavsiya etadi. Ish tartibi va oraliq bosqichlarni baholash mezonlari va umuman jarayonni belgilaydi	Harakat rejasini tanlaydilar: vazifalarni shakllantiradilar, yo'nalish va bajarish bosqichlarini, ular tartibini aniqlaydilar, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlaydilar. Ta'lim beruvchi bilan natijalarni tahlil etish usulini (hisobot shaklini) ma'qullaydilar
2 - bosqich Tadqiq qilish	Kuzatadi, maslahat beradi, axborot manbasini izlashga yordam beradi, o'zi axborot manbai hisoblanadi	Tadqiqotni bajaradilar. Axborot to'playdilar, oraliq vazifalarni echadilar,
3 - bosqich Axborot tahlili. Xulosalarni shakllantirish.	Butun jarayonni boshqaradi, qaytar aloqani ushlab turadi	Olingan axborotni tahlil qiladilar, xulosalarni shakllantiradilar
4 - bosqich Hisobot	Eshitadi, oddiy ishtirokchi bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan savollar beradi, quvvatlaydi va rag'batlantiradi	Hisob beradilar. Ish natijalarini: og'zaki hisobot materiallarini namoyish bilan og'zaki hisobot, loyiha ko'rinishida yozma hisobot shakllarida taqdim etadilar
5 - bosqich Jarayon va natijalarni baholash.	Muammoni echishning to'liq darajasini, guruhlar harakati strategiyasi, ta'lim oluvchilar kuchi, manbalardan foydalanish sifati, ijodiy yondashuv, ishni davom ettirish imkoniyati, hisobot sifati va boshqalarni baholaydi	Jamoaviy muhokama orqali ish natijalari va uning borishi, shu jumladan muammoni echishning to'liqlik darajasi va harakat strategiyasini himoya qiladilar, baholaydilar

Loyihalashtirish faoliyatini bajarish bosqichlari tahlil qilinadi:

- *Tayyorlov bosqichi:*

- a) loyiha mavzusini tanlanib, uning dolzarbligi, yechilishi kerak bo'lgan muammo shakllantiriladi.
- b) loyiha maqsadi, predmeti, ob'ekti va vazifalari belgilanib olinadi.

v) loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo'lgan topshiriqlar tayyorlanib, ularni yechish usul va vositalari tanlanadi.

g) loyiha mavzusiga doir adabiyotlar va axborot manbalari bilan tanishiladi.

- *O'quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.*

a) maqsadga erishish ketma-ketligi ishlab chiqiladi.

b) Ish rejasini tuziladi (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo'yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilanadi).

- *Loyihani bajarish bosqichi.*

a) kerakli ma'lumotlarni to'planib, tizimga keltiriladi va tahlil qilinadi.

b) tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish jarayoni (tayyor holatga keltiriladi).

v) yo'riqnomaga muvofiq loyiha faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlanadi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari amaliy mashg'ulotda loyihanibajarish rejasini quyidagicha shakllantiradilar.

Loyihani bajarishning ish rejasi

<i>Ishtirokchilarning F.I.Sh.</i>	<i>Topshiriq</i>	<i>Faoliyat turi</i>	<i>Tayyor mahsul ko'rinishi</i>	<i>Bajarilish muddati</i>
*	Loyiha doirasida qatnashchilarni aniqlash, har bir qatnashchining vazifasini belgilash	Qatnashchilar ro'yxati tuziladi, qatnashchilar imkoniyatlariga qarab loyiha uchun tanlangan faoliyat yo'nalishidagi korxonaning hisob siyosatidagi bandlar o'zaro taqsimlanadi	Loyihani amalga oshirish rejasi shakllanadi	**
	Loyiha mavzusi ma'lumotlari bankini shakllantirish	Tanlangan Loyiha mavzusining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi	loyiha pasporti	
	Loyihani rasmiylashtirish	Loyiha ishi natijalarini to'plash	Loyiha tayyor holga keltiriladi	
	Loyihalashtirish faoliyati natijalari	Mavzu dolzarbligi va muammoni asoslab	Hisobot	

	va loyiha taqdimoti bo'yicha hisobotni tayyorlash	berish, loyihaning maqsad va vazifalarini ko'rsatib berish va boshqalar		
	MS Power Pointda loyiha taqdimotini tayyorlash	Taqdimotni umumiy rasmiylashtirish va uning mazmunini yana bir bor tekshirish, yangi slaydlarni qo'shish va hokazo	Taqdimot	

*Izoh:** – har bir guruhdagi ishtirokchilar hamda mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda ishtirokchilarning F.I.Sh.lari belgilanadi;

**** – bajarish muddatlari tanlangan loyiha yo'nalishi va guruhdagi vaziyatga bog'liq ravishda muayyan holatdan kelib chiqib belgilanadi.

- Loyihani taqdimotga tayyorlash.

a) MS Power Point da taqdimotlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmadan foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlash.

b) loyihaning og'zaki taqdimotida guruh a'zolari o'rtasida vazifalarni aniqlanadi.

v) ommaviy taqdimot, loyiha himoyasi va baholash

Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha talaba quyidagi yo'riqnoma asosida faoliyatini tashkil etishi maqadga muvofiq:

a) taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalash.

b) hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z bilan) asoslanadi.

v) loyihaning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsatiladi.

g) loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalanadi.

d) loyihaning ish rejasi bayon etiladi.

e) vazifani echimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsatiladi.

j) taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiriladi.

z) bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxati ko'rsatiladi.

Loyihalar ekspertizasining aniq tizimi g'olibni xolisona aniqlashtirib qolmay, loyihaning sifatini xolisona baholash, loyiha ustida ishlash elementlari monitoringini yaratadi. Loyihani ekspert baholashi uchun ekspert komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya tarkibiga zaruriy malakaga ega bo'lgan ota-onalarni, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarini boshqa maktab o'qituvchilarini kiritish mumkin. Bajarilgan o'quv loyhasi natijalarini baholash jarayonida loyiha sifati, loyiha ustida ishlash jarayoni, ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni engib o'tish yo'llariga e'tibor qaratiladi. Fan o'qituvchisi bilan birga amaliy mashg'ulotda bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni tayyorlashni quyidagi varianti tahlil qilinadi:

Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	<i>Baholash mezonlari</i>	<i>Baholash ko'rsatkichlari</i>
1.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiqligi - maks. 1 ball
2.	Tanlangan mavzu asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi aks ettirilishi - maks. 1 ball
3.	Echimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslanganligi - maks.1 ball
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarining bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilanganligi - maks. 1 ball
5.	Loyiha vazifalarining belgilanishi	Loyiha vazifalari aniqligi - maks.1 ball
6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiqligi - maks.1 ball
7.	Vazifalar bo'yicha loyihaning ish natijalarini keltirish	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilganligi - maks. 1 ball
8.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilganligi - maks. 1 ball
9.	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilganligi - maks.1 ball
10.	Loyiha faoliyatini o'zi	Tanqidiy baho: mahsul sifati, loyiha ustida ishlash:

	baholashi	har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni yengish berilganligi, loyiha ishining ish materiallari mavjudligi - maks.1 ball
<i>Jami: 10 ball</i>		

Amaliy mashg'ulotning yakunida loyiha portfoliosi - o'quvchilar loyihani bajarish davomida to'plangan hujjatlar, ma'lumotlarni, ko'rgazmali vositalarni jamlashtirib hisobot tayyorlaydilar va loyiha portfoliosiga joylashtiradi.

Amaliy mashg'ulotning yakunida kelgusi amaliy mashg'ulotning mavzusi va uni tayyorlash uchun mustaqil topshiriqlar beriladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi . T.: 1997 y.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998 y.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch .-T.: Ma'naviyat. 2008 y.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU. 2003 y.
5. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" 2012 y.
6. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. -T.: RTM, 2000 y. -46 b.
7. [www. Google.uz](http://www.Google.uz) www. Ziyonet.uz

2– amaliy mashg'ulot: *Umumta'lim maktablarining 5-sinf tarix darslarida loyiha metodi asosida darslarni tashkil etish*

Reja:

1. “Umumta'lim maktablarining 5-sinf tarix darslarida loyiha metodi asosida darslarni tashkil etish” mavzusidagi amaliy mashg'ulotning tavsifi
2. Amaliy mashg'ulotni bajarish jarayoni
3. Hikoya - o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirish samarali vositasi

Tayanch iboralar: loyiha metodi, tarixdan hikoyalar, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish, o'quv loyihasi pasporti, hikoya, portfolio, so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, saklar va massagetlarlar, ularning turmush tarzi, diniy tasavvurlar, zardushtiylik diniy ta'limoti, Zardusht, “Avesto”, zardushtiylik dini xudolari Axuramazda, Anaxita, Mitra

1. *“Umumta'lim maktablarining 5-sinf tarix darslarida loyiha metodi asosida darslarni tashkil etish” mavzusidagi amaliy mashg'ulotning tavsifi*

Umumta'lim maktablari 5-sinf tarix darslarida loyiha metodi asosida o'qitish ta'lim-tarbiyaning ma'lum bir vazifalarini hal qiladi: loyiha asosida o'qitiladigan har bir o'quvchida shaxsiy ishonchni o'sishiga yordam berish, uni o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Ko'rsatilganlar “yutuq vaziyati”ni darsda (yoki darsdan tashqari) so'zda emas amalda his qilish orqali, o'quvchi o'zini kerakligi, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega ekanligini bilishiga olib keladi. Umumta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilarining yoshi, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda loyihalash asosida darsni tashkil qilish ta'lim berish samaradorligini oshiradi.

Izoh. *Talaba kelajakda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosida tarix darslarini o'tish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg'ulotda o'quvchi roliga kiradi.*

Amaliy mashg'ulotning ta'limiy maqsadi: Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida "Umumta'lim maktablarining 5-sinf tarix darslarida loyiha metodi asosida darslarni tashkil etish" mavzusida darsni loyiha metodi asosida o'qitishning o'quv va ko'nikmasini shakllantirish, dars o'tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o'tish ko'nikmasini rivojlantirish

Amaliy mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: Tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ajdodlar madaniy-ma'naviy merosiga hurmat va uni asrash ruhida tabiiyalash

Amaliy mashg'ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: Bo'lajak tarix fani o'qituvchida mavzu bo'yicha foydalaniladigan manba, adabiyot va boshqa vositalar bo'yicha tushuncha hosil qilish.

Talabalar amaliy mashg'ulotni bajarish uchun tavsiya etiladigan 5-sinf "Tarixdan hikoyalar" darsligidan loyiha metodi asosida o'tiladigan mavzulari:

- Qadimgi shaharlarning paydo bo'lishi
- Dunyoning etti mo'jizasi
- Avesto ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi
- Yurtimiz allomalari
- Amir Temur va uning davlati
- O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritishi

Izoh. Tavsiya etilayotgan mavzularning nomlari o'quv loyihasida o'zgarishi ham mumkin. O'quv loyihasini bajarish mobaynida mavzu yuzasidan izlanish, materiallarni to'plash asosida olingan bilimlardan kelib chiqqan holda o'quv loyihasi mavzu doirasidan chiqishi mumkin.

Amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining 5-sinf tarix fanidan "Avesto"-ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

2. O'quv loyihasi: "Avesto"- ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi "

5-sinf o'quvchilarining yoshi, qobiliyati va psixologik holatiga mos ravishda o'quv loyihalari tanlanishi kerak. 5-sinf o'quvchilarida tarixiy tasavvur va

tushunchalar mavjud bo'lmaydi, shu sababli tarix o'qituvchisi o'quvchilarda ilk tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. 5-sinf "Tarixdan hikoyalar" darsligidagi insoniyatning paydo bo'lishidan hozirgi davrigacha bo'lgan jahondagi va Vatanimiz tarixida bo'lgan muhim tarixiy voqealarini loyiha metodi asosida o'rganish ko'zda tutiladi. 5-sinf o'quvchilarga tavsiya etiladigan manbaa va adabiyotlar o'quvchining yoshiga mos, sodda va tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida ota-onalar yordamiga suyanadi. Bu esa ota-ona va o'quvchi o'rtasidagi muloqot vaqtini ko'paytiradi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy, maishiy hayotida zardushtiylik diniy ta'limotining ahamiyatini ochib berish

Loyihaning maqsadi. Vatanimizning qadimgi tarixi o'zida aks ettirgan ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi - "Avesto" to'g'risida 5-sinf o'quvchilarida tarixiy bilim va ko'nikmani, diniy bag'rikenglik tuyg'ularini hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash.
2. To'plangan manba va adabiyotlar ustida ishlash,
3. Mavzuga doir hikoya tuzish, taqdimot.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija (loyiha mahsuli). O'quvchilar miloddan avvalgi I ming yillikda O'rta Osiyoda yashagan so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, saklar va massagetlarlar, ularning turmush tarzi, diniy tasavvurlar, zardushtiylik diniy ta'limoti, Zardusht, "Avesto", zardushtiylik dini xudolari Axuramazda, Anaxita, Mitra to'g'risida o'quvchilarda haqida tarixiy ma'lumot va bilimga ega bo'ladi, "Avesto"- ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi" mavzusini o'rganish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ulardan foydalanish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, hikoya tuzish, loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari va maktab o'quvchilari.

Loyihaning tarkibi: Taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish "Avesto"-ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi" mavzusining namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllantirishda umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondosh usul va vositalardan foydalanib mavzuni yoritishi mumkin.

Talabalarga loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun ko'rsatma:

Mavzuning dolzarbligi: O'quvchilar o'zbek xalqining boy tarixini, qadim ajdodlarimizning kim ekanligini, miloddan avvalgi 1ming yillikda O'rta Osiyoda yashagan so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, saklar va massagetlarlar, ularning turmush tarzi, diniy tasavvurlar, zardushtiylik diniy ta'limoti, Zardusht, "Avesto", zardushtiylik dini xudolari Axuramazda, Anaxita, Mitra to'g'risida bilimlar hosil qilish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy, maishiy hayotida zardushtiylik diniy ta'limotining ahamiyatini ochib berish

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey.

"Avesto"-ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi" mavzusini loyiha metodi asosida o'tishda hikoyalar tuzish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirish samaralidir. Hikoya- ob'ekt va hodisalarning, jamiyatdagi xalqlar hayotidagi hodisalar, voqealarning nutqdagi ifodasidir. Ma'lumotlar, tarixiy jarayonlar, tarixiy voqealar, misollar yagona maqsadga birlashtirilib, shu mavzu yoki tarixiy jarayonni izchil va muntazam tarzda ochib berilsa, hikoya ijobiy natija beradi va materi allarni o'quvchi oson o'zlashtirishga yordam beradi. Beriladigan ma'lumotlar qancha ko'p va qiziqarli bo'lmasin agar ular bir tizimga solinmagan bo'lsa, ular orasidagi aloqalar va bog'liqliklar ochilmasa va tegishli xulosalar

qilinmasa hikoya ko'zda tutilgan samarani bermaydi. Dalillar, xulosa va umumlashmalarni mustaxkamlashi va aniqlashtirish va o'quvchilarni o'zlashtirishini osonlashtirish lozim. 5-sinf tarix darslarida hikoyaning quyidagi ikki turini qo'llanilsa o'z samarasini beradi.

1. O'rganilayotgan tarixiy voqea va jarayon to'g'risidagi tarixiy dalillar asosidagi bilimlarni o'zida aks ettirgan hikoyalar.
2. Tasviriyl yoki kartinka hikoyalari. Bu turdagi hikoyalarning maqsadi tarixiy jarayonlar va shaxslar haqida aniq tasavvur hosil qilish.

Hikoya davomida ayrim mavhum narsalar, raqamlarni doskaga yozib borish zarur, bu esa mavzuga doir materiallarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Loyiha portfoliosi - o'quvchilar loyihani bajarish davomida to'plangan hujjatlar, ma'lumotlarni, ko'rgazmali vositalarni jamlashtirib hisobot tayyorlaydilar va loyiha portfoliosiga joylashtiradi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Usmonov Q, Jo'rayev U, Ahmedov B. 5-sinf "Tarixdan hikoyalar". T.O'qituvchi. 2011 y.
2. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. T. 2002 y.
3. Buyuk siymolar, allomalar.-T.: Meros. 1-kitob, 1995, 2-kitob 1996, 3-kitob 1997 y.
4. Rajabov R.Qadimgi dunyo xrestomatiyasi. T. Adib. 2013 y.
5. [www. Google.uz](http://www.Google.uz) www. Ziyonet.uz

3– amaliy mashg’ulot: *Umumta’lim maktablarining 6-sinf tarix darslarini loyihalash*

Reja:

1. “Umumta’lim maktablarining 6-sinf tarix darslarini loyihalash” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning tavsifi
2. Amaliy mashg’ulotning bajarish jarayoni
3. O’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini o’stirishda ko’rgazmali (slayd), hikoya metodlari

Tayanch iboralar: samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, madaniy-estetik tarbiya, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, hikoya, portfolio, tarqatma materiallar tayyorlash, krossvord tuzish, loyiha taqdimoti, To’maris, SHiroq va Spitamen

Umumta’lim maktablari tarix darslarida loyiha metodi asosida darsni tashkil qilish ta’lim berish samaradorligini oshiradi. Ta’lim samaradorligini oshirishda, xususan, loyihalash usuli eng samarali hisoblanadi buning natijasida o’quvchilar ongida ma’lumotning 75% i saqlanib qoladi. O’quv-amaliy mashg’ulotlarning o’quvchilar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% ma’lumot o’zlashtiriladi. SHu sababli o’quv jarayonini loyiha metodi asosida tashkil qilish o’quvchilarning mavzu yuzasidan oladigan bilim va ko’nikmalarni olish samaradorligi oshiradi.

Amaliy mashg’ulotning ta’limiy maqsadi: Bo’lajak tarix fani o’qituvchilarida “Umumta’lim maktablarining 6-sinf tarix darslarini loyihalash” mavzusida darsni loyiha metodi asosida o’qitishning o’quv va ko’nikmasini shakllantirish, dars o’tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o’tish ko’nikmasini rivojlantirish, 6-sinf tarix darsliklarida insoniyat tarixining dastlabki davridan to g’arbiy Rim imperiyasining qulashigacha, ya’ni milodiy 476 yilgacha bo’lgan davrning tarixi o’qitish.

Amaliy mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: Tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, madaniy, ma'naviy merosni asrash ruhida tabiiyalash

Amaliy mashg'ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: Bo'lajak o'qituvchida 6-sinf tarix darslarni o'qitishda loyiha metodidan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.

- Bo'lajak o'qituvchida ushbu mavzu bo'yicha foydalanidigan manba, adabiyot va boshqa vositalar bo'yicha tushuncha hosil qilish;

-Tarix fani sohalarini solishtirish malakasiga ega bo'lish;

- Darsni tashkil etish metodikasi bo'yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish;

Izoh. Talaba kelajakda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosida tarix darslarini o'tish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg'ulotda o'quvchi roliga kiradi.

Bo'lajak tarix o'qituvchisiga ushbu fanning birinchi darsida umumta'lim maktablari tarix darsliklaridagi mavzularni tahlil qilib, loyiha metodi asosida tayyorlash uchun mavzular taklif qilinadi. Maktab o'quvchilari ushbu mavzular yuzasidan loyihani bajarishda maktabning tajribali tarix fani o'qituvchilari, shuningdek, oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilaridan ham metodik yordam olishlari mumkin. Talabalar amaliy mashg'ulotni bajarish uchun tavsiya etiladigan 6-sinf tarix darsligidan loyiha metodi asosida o'tiladigan mavzulari:

1. Urug'chilik jamiyati
2. Qadimgi Misr dini
3. Mesopotamiya sivilzatsiyasi
4. Qadimgi YUnoniston ravnaqi
5. Qadimgi YUnoniston madaniyati
6. O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari

Izoh. Tavsiya etilayotgan mavzularning nomlari o'quv loyihasida o'zgarishi ham mumkin. O'quv loyihasini bajarish mobaynida mavzu yuzasidan izlanish, materiallarni to'plash asosida olingan bilimlardan kelib chiqqan holda o'quv loyihasi mavzu doirasidan chiqishi mumkin.

Ushbu amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining 6-sinf tarix fanidan "O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining 6-sinf tarix fanidan "O'rta Osiyoga axamoniylarning bosqinchilik yurishlari" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

O'quv loyihasi: "O'rta Osiyoga axamoniylarning bosqinchilik yurishlari"

6-sinf o'quvchilarining yoshi, qobiliyati va psixologik holatiga mos ravishda o'quv loyihalari tanlanishi kerak. 6-sinf o'quvchilarida tarixiy tasavvur va tushunchalar mavjud bo'lmaydi, shu sababli tarix o'qituvchisi o'quvchilarda ilk tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. 6-sinfda tarix fanini o'qitishda insoniyat tarixining ibtidoiy tarixidan to milodiy 476 yil ya'ni G'arbiy Rim imperiyasi qulagangacha bo'lgan muhim tarixiy voqealarini loyiha metodi asosida o'rganish ko'zda tutiladi. 6-sinf o'quvchilarga tavsiya etiladigan manbaa va adabiyotlar o'quvchining yoshiga mos, sodda va tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida ota-onalar yordamiga suyanadi. Bu ota-ona va o'quvchi o'rtasidagi muloqot vaqtini ko'paytiradi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Miloddan avvalgi 6-4 asrlarda Vatanimiz tarixi to'g'risida, xalq ozodligi uchun chet el bosqinchilariga qarshi kurashgan xalq qahramonlari jasorati to'g'risida tasavvur, tushuncha va tarixiy bilim hosil qilish.

Loyihaning maqsadi: Vatanimizning qadimgi tarixi to'g'risida o'quvchilarda tarixiy bilim hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir adabiyot va manbalarni to'plash.
2. Matn va axborot manbalari bilan ishlash.
3. Mavzuga doir slayd tayyorlash, hikoya tuzish, taqdimot

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija o'quvchilar To'maris, SHiroq va Spitamenning jasoratlarini mavzusini o'rganish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan

ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, tarqatma materiallar tayyorlash, krossvord tuzish, loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari va maktab o'quvchilari.

Loyihaning tarkibi: Taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish "O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari" mavzusining namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllantirishda umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondosh usul va vositalardan foydalanib mavzuni yoritishi mumkin.

Talabalar uchun loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun uslubiy ko'rsatma:

Mavzuning dolzarbligi: Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilar o'zbek xalqining boy tarixini, qadim ajdodlarimizning kim ekanligini, qadim ajdodlarining Vatanni himoya qilish yo'lida olib borgan fidokorona xizmatlarni yoritish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Vatanimiz tarxida mustaqillik uchun olib borgan ozodlik qahramonlarining vatanparvarlik kurashini yoritish va o'quvchilar ongiga singdirish.

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey

6-sinf tarix darslarida "O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari" mavzusini o'quvchilarga o'tish jarayonida loyiha metodini qo'llash, natijalarni taqdim qilish uchun Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha quyidagi shakldan foydalanish ko'zda tutiladi.

Power Point da taqdimotga tayyorlash jarayoni quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;
- slaydlarni belgilashni tanlash;

- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

Slaydlarni texnik namoyish etish quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

Slaydlar *miqdori* (8-12).

Slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari:

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, -o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
- oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
- Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

“O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari” mavzusini loyiha metodi asosida o'tishda hikoyalar tuzish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirish samaralidir. Hikoya metodi yordamida tarixiy, voqea va xodisalarni jonli tasvirlashga aytiladi, bunda o'qituvchining jonli so'zi muhim o'rin tutadi. Hikoya metodi bilan o'quvchi tarixi jarayonlar, voqea va xodisalarni, atrofni o'quvchilar ongida jonli tasvirlarni shakllantirishda, o'quvchilar tarixiy shaxslar, o'rganilayotgan davrni o'zida aks ettirgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot bilan, turli hil tarixiy shaxslar bilan, turli xil tarixiy davlatlardagi aholining hayoti va faoliyati bilan tanishtirishda foydalanadi.

Hikoya metodi quyidagi talablarga javob berishi zarur:

-hikoya qilinishi lozim bo'lgan tarixiy voqea va xodisalar oldindan tanlab olinishi lozim;

-hikoya o'quvchilar ongida o'rganilayotgan tarixiy voqea va xodisalar haqida aniq tasavvur xosil qilishi lozim;

- hikoya ishonchli bo'lishi lozim, asosiy ma'lumotlar ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajralib turishi zarur;

- hikoya davomida turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalanish kerak;

- 5-sinflarda ko'proq o'qituvchi o'zi tarixiy voqea va xodisalar xaqida hikoya qilib berishi kerak;

-hikoya tarix fanining eng so'ngi yutuqlaridan foydalangan xolda bayon qilinishi lozim;

- hikoya g'oyaviy siyosiy jixatdan to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Unda darslik va ilmiy-ommabop materiallar, kundalik matbuotda e'lon qilingan ma'lumotlardan foydalanmoq zarur.

Hikoyaning samaradorligi ko'p xollarda o'quv materialini tanlashga dalillar va umumlashmalarni to'g'ri nisbatiga bog'liq.

Hikoya davomida o'qituvchi turli xil ma'lumotlarni bayon qilish davomida asosiy va eng muhim narsalarni, ya'ni tarixiy voqea va xodisalarning mazmuni va mohiyatini esdan chiqarmasligi kerak. Beriladigan ma'lumotlar qancha ko'p va qiziqarli bo'lmasin agar ular bir tizimga solinmagan bo'lsa, ular orasidagi aloqalar va bog'liqliklar ochilmasa va tegishli xulosalar qilinmasa hikoya ko'zda tutilgan samarani bermaydi. Dalillar, xulosa va umumlashmalarni mustaxkamlashi va aniqlashtirish va o'quvchilarni o'zlashtirishini osonlashtirish lozim.

Hikoya yaxshi chiqishi va samarali bo'lishi uchun bayon davomida xarita, rangli tasvirlar, maketlar va boshqa materiallardan foydalanish zarur. Ko'rgazmali qurollar o'qituvchi hikoya yordamida shakillantiriladigan tasavvurlarni to'ldiradi va aniqlashtiradi. Hikoya davomida tarixiy voqea va xodisalar, tarixiy yoki afsonaviy shaxslar tasvirlangan rasmlardan ham foydalaniladi.

Hikoyadan darsning turli bosqichlarida foydalaniladi. Ba'zida hikoya dars jarayonida mustaqil o'rin ham egallashi mumkin, uning turli bosqichlarida tushuntirish metodini qo'llash mumkin. Ayrim xollarda o'qituvchi qisqa hikoyadan tushuntirishga o'tishi mumkin. V-VII sinfarda mavzular ko'proq tasviriy tarzda hikoya qilib beriladi. VI-VII sinflarda tarixiy jarayonlar va hodisalarni tasvirlash, sharxlash ilmiy dalillar bilan qo'shib olib boriladi, V-VI sinflarda 3-10 minut, VI-VII sinflarda 10-15 minut, VIII-IX sinflarda 15-20 minut bo'lishi lozim.

Port folio: Guruhlarning loyiha bo'yicha qilgan barcha materiallari yig'ma jild (port folio) shakliga keltirilib, tarix o'qituvchisiga topshirildi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998 y.
2. Sagdullaev A., Kostesskiy V. 6-sinf tarix darsligi. T.: O'qituvchi, 2013 y.
3. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. T. 2002 y.
4. Krushkol Yu. Qadimgi dunyo tarixi. 2-qism. T. 1975 y
5. Rajabov R. Qadimgi dunyo xrestomatiyasi. T. Adib. 2013 y.
6. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" 2012 y.
7. [www. Google.uz](http://www.Google.uz) www. Ziyonet.uz

4– amaliy mashg’ulot: *Umumta’lim maktablarining 7-sinf tarix darslarini loyiha metodi asosida o’qitishning maqsadlari*

Reja:

1. “Umumta’lim maktablarining 7-sinf tarix darslarini loyiha metodi asosida o’qitishning maqsadlari” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning tavsifi
2. Amaliy mashg’ulotning bajarish jarayoni – o’quv loyihasi
3. *Viktorinalar - o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini o’stirishdagi o’rni*
Tayanch iboralar: rejalashtirish, tashkillashtirish, samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, hikoya, portfolio, efitlitlar, kidariylar, xioniylar, G’arbiy turk xoqonligi, Tohariston, So’g’d konfederatsiyasi, Choch, Iloq, Xorazm

Loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo’llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualo o’qitish usulini amalga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o’qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. Loyihalarda o’qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o’zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo’lishi mumkin. Loyihalash metodini qo’llash jarayonida ta’lim beruvchi loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta’lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to’g’risida ma’lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o’tadi. SHu sababli o’quv jarayonini loyiha metodi asosida tashkil qilish o’quvchilarning mavzu yuzasidan oladigan bilim va ko’nikmalarni olish samaradorligi oshiradi.

Amaliy mashg’ulotning ta’limiy maqsadi: Tarix fani o’qituvchilarida “Umumta’lim maktablarining 7-sinf tarix darslarini loyiha metodi asosida o’qitishning maqsadlari” mavzusida darsni loyiha metodi asosida o’qitishning o’quv va ko’nikmasini shakllantirish, dars o’tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o’tish ko’nikmasini rivojlantirish, 7-sinf

“O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darsliklarida insoniyat tarixining V - XVI asrgacha tarixining muhim tarixiy voqealarini loyiha tarixini o‘qitish.

Amaliy mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi: Tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, madaniy, ma’naviy merosni asrash ruhida tabiiyalash

Amaliy mashg‘ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: - Bo‘lajak o‘qituvchida 7-sinf tarix darslarni o‘qitishda loyiha metodidan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish.

- Bo‘lajak o‘qituvchida ushbu mavzu bo‘yicha foydalanidigan manba, adabiyot va boshqa vositalar bo‘yicha tushuncha hosil qilish;

-Tarix fani sohalarini solishtirish malakasiga ega bo‘lish;

- Darsni tashkil etish metodikasi bo‘yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish;

7-sinfda tarix fanini o‘qitishda Vatanimizning V - XVI asrgacha tarixining muhim tarixiy voqealarini loyiha metodi asosida o‘rganish ko‘zda tutiladi. Mavzular bo‘yicha bajariladigan loyihalarning o‘ziga xos xususiyatlarni tushuntiriladi. Loyiha metodi asosida o‘tiladigan darsning maqsadi belgilanadi. Darsning jihozi aniqlashtiriladi. Loyiha asosida o‘tiladigan darsda o‘quvchilar o‘zlashtirib olishlari zarur bo‘lgan asosiy tushunchalar muhokama qilinadi. O‘tiladigan dars rejasi belgilanadi. Ushbu amaliy mashg‘ulotda o‘rta maktabning 7-sinfida o‘tish ko‘zda tutilgan loyiha metodi asosida o‘tiladigan ma’lum bir mavzu namuna sifatida tahlil qilinadi.

Izoh. *Talaba kelajakda o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o‘qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosda tarix darslarini o‘tish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Amaliy mashg‘ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg‘ulotda o‘quvchi roliga kiradi.*

Talabalar amaliy mashg‘ulotni bajarish uchun tavsiya etiladigan 7-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligidan loyiha metodi asosida o‘tiladigan mavzulari:

1. Ilk o'rta asrlar davlatlari
2. Islom dini va arab xalifaligi
3. Xorazm davlati va uning yuksalishi
4. O'rta osiyolik mutafakkirlar.
5. Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar

6. Amir Temur — markazlashgan davlat asoschisi

7. Ulug'bek — ma'rifatparvar davlat arbobi

Izoh. Kalendar reja bo'yicha o'tiladigan mavular nomlari o'quv loyihasida boshqacha nomlanishi mumkin. Chunki bajariladigan o'quv loyihasi mavzu doirasidan chiqishi muqarrar. Masalan, "Ilk o'rta asrlardagi davlatlari" mavzusi loyiha metodi asosida o'rganilganda nafaqat siyosiy tarix, balki madaniy hayot, diniy e'tiqod, demografik jarayonlarga ham e'tibor qaratiladi.

Ushbu amaliy mashg'ulotda talabalar o'rta maktabning 7-sinf O'zbekiston tarixi fanidan "Ilk o'rta asrlardagi davlatlar" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi. "Ilk o'rta asrlardagi davlatlari" mavzudasigi amaliy mashg'ulotda bo'lajak tarix o'qituvchilari bilan o'rta maktabning 7-sinfida Jahon tarixi va O'zbekiston tarixi fanlarini o'qitishda loyiha metodini qo'llash o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining 7-sinf tarix fanidan "Ilk o'rta asrlardagi davlatlar" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

2.O'quv loyihasi: "Ilk o'rta asrlardagi davlatlar"

7-sinf o'quvchilarining yoshi, qobiliyati va psixologik holatiga mos ravishda o'quv loyihalari tanlanishi kerak. O'quvchilarga mavzu bo'yicha loyiha tuzish bo'yicha maslahat beriladi. Loyihani amalga oshirish shakli – guruhiiy. O'quvchilar besh guruhga bo'linadi. Har bir guruh loyihani amalga oshirish rejasi tuziladi. O'quvchilar reja asosida mavzu yuzasidan yozma manbalar va tarixiy adabiyotlar, badiiy adabiyot, tarixiy obidalar to'g'risida ma'lumot to'planadi. Tarixiy joylarga, muzeylarga ekskurtsiya uyushtiriladi, hujjatli va badiiy filmlarni tahlil qilinadi. To'plangan materialni tahlil qilib, tushunchalar hosil qilinadi. Olingan natijalar yozma tavsif qilinadi.

O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlardagi eftalitlar, kidariylar, xioniylar, g'arbiy turk xoqonligi, o'lkadagi Tohariston, So'g'd konfederatsiyasi, Choch, Iloq, Xorazm kabi davlatlar tarixi to'g'risida 7-sinf o'quvchilarga tavsiya etiladigan manbaa va adabiyotlar o'quvchining yoshiga mos, sodda va tushunarli bo'lishi kerak.

O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida konsultant o'qituvchi, ota-onalar yordamiga suyanadi. Bu ota-ona va o'quvchi o'rtasidagi muloqot vaqtini ko'paytiradi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Vatanimiz tarixi O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlardagi eftalitlar, kidariylar, xioniylar, g'arbiy turk xoqonligi, o'lkadagi Tohariston, So'g'd konfederatsiyasi, Choch, Iloq, Xorazm kabi davlatlar tarixi to'g'risida tasavvur, tushuncha va tarixiy bilim hosil qilish.

Loyihaning maqsadi: Vatanimizning qadimgi tarixi to'g'risida o'quvchilarda tarixiy bilim hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash.
2. To'plangan manba va adabiyotlar ustida ishlash,
3. Mavzuga doir slayd tayyorlash, viktorinalar o'tkazish, taqdimot.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija: o'quvchilar "Ilk o'rta asrlardagi davlatlar" mavzusini o'rganish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, viktorinalar o'tkazish va loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari va maktab o'quvchilari.

Loyihaning tarkibi: Taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish "Ilk o'rta asrlardagi davlatlar" mavzusining namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllantirishda umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondosh usul va vositalardan foydalanib mavzuni yoritishi mumkin.

Talabalarga loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar:

Mavzuning dolzarbligi: tarix o'qitish jarayonida o'quvchilar o'zbek xalqining boy tarixini, qadim ajdodlarimizning kim ekanligini, qadim ajdodlarining ilk o'rta asrlardagi eftalitlar, kidariylar, xioniylar, g'arbiy turk xoqonligi, o'lkadagi

Tohariston, So'g'd konfederatsiyasi, Choch, Iloq, Xorazm kabi davlatlar tarixi yoritish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Vatanimiz tarixi O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlardagi eftalitlar, kidariylar, xioniylar, g'arbiy turk xoqonligi, o'lkadagi Tohariston, So'g'd konfederatsiyasi, Choch, Iloq, Xorazm kabi davlatlar tarixi to'g'risida tasavvur, tushuncha va tarixiy bilim hosil qilish

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey.

“Ilk o'rta asrlardagi davlatlar” mavzusini loyiha metodi asosida o'tishda viktorinalar tashkil qilish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirish samaralidir. Viktorinalar o'quvchilarning eng qiziqib qiziqadigan mashg'ulotlardan biridir. Viktorinalar bu avvalo, o'yindir. Mabodo o'yinlarda qiziqarlik alomati bo'lmasa, u o'yin bo'la olmaydi. Tarix faniga doir viktorinalari ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Mavzuli viktorinalar
2. Aralash viktorinalar

Masalan “Ilk o'rta asrlardagi davlatlar” mavzusidagi viktorina savollari:

1. Xorazm davlati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Xioniylar davlati qanday qaror topdi?
3. Yurtimizga toxarlarning kinb kelishi qanday yuz berdi?
4. Eftallar va ular tuzgan davlat haqida nimalarni bilasiz? va hokazo

Aralash viktorinalar tarixiy bilimlarning turli sohalariga bag'ishlanishi mumkin. Masalan, O'zbekiston va jahon tarixi fanlarning sohalariga bag'ishlanadi. Bunday viktorinalar to'garaklarda, ekskurtsiyalar davomida o'tkazilishi mumkin.

1. So'g'd konfederatsiyasi nima?
2. Dehqonlar, kashovarlar, kadivarlar
3. Ilk o'rta asr Evropasi va O'rta Osiyoni taqqoslang
4. Franklar, germanlar, gotlar kimlar?

Viktorinalar uyushtirishdagi muhim qiyigchiliklardan biri savollar tuzish hisoblanadi. Savollar mazmunan xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Doimiy materiallarni bilishni talab qiluvchi savollar, birinchi guruhga kiradi,
2. Ikkinchi guruh savollari o'quvchilarda tushunchalarni qanchalik egallanganlarini tekshirish uchun beriladi.
3. Uchinchiguruh savollari tarixiy atamalarni bilishga oid bo'lishi mumkin.
4. To'rtinchi guruh savollari o' quvchilarning dunyoqarashini, topqirligini tekshirib ko'rishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Port folio: Guruhlarning loyiha bo'yicha qilgan barcha materiallari yig'ma jild (port folio) shakliga keltirilib, tarix o'qituvchisiga topshirildi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Muhammadjonov A.7-sinf O'zbekiston tarixi darsligi T.: O'qituvchi.2013 y.
2. Salimov O'.T., Sultonov F.E.7-sinf Jahon darsligi. T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2013 y.
3. Buyuk siymolar, allomalar.-T.: Meros. 1-kitob, 1995, 2-kitob 1996, 3-kitob 1997 y.
4. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism). Toshkent, 1993 y.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001 y., I-XII jild.
6. [www. Google.uz](http://www.Google.uz) www. Ziyonet.uz

5– amaliy mashg’ulot: *Umumta’lim maktablarining 8-sinf tarix darsi mashg’ulotlarida loyiha metodi texnologiyalari*

Reja:

1. “Umumta’lim maktablarining 8-sinf tarix darsi mashg’ulotlarida loyiha metodi texnologiyalari” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning tavsifi
2. O’quv loyihasi - amaliy mashg’ulotning bajarish jarayoni asosi.
3. O’quvchilarning bilimlarini o’stirishda konferensiyalar konferentsiyalar va tarix haftaliklari tashkil qilishning ahamiyati

Tayanch iboralar: samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, madaniy-estetik tarbiya, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, konferensiya, tarixiy kechalar, portfolio, Amir Temur, Bobur Mirzo, Muhammad Shayboniyxon, “Boburnoma”

Loyihalarda o’qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o’zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo’lishi mumkin. Loyihalash metodini qo’llash jarayonida ta’lim beruvchi loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta’lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to’g’risida ma’lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o’tadi.

Amaliy mashg’ulotning ta’limiy maqsadi: Tarix fani o’qituvchilarida «Umumta’lim maktablarining 8-sinf tarix darsi mashg’ulotlarida loyiha metodi texnologiyalari» mavzusida darsni loyiha metodi asosida o’qitishning o’quv va ko’nikmasini shakllantirish, dars o’tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o’tish ko’nikmasini rivojlantirish, 8-sinf “O’zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darsliklarida insoniyat tarixining XVI asrdan XIX asrning o’rtalarigacha bo’lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayoti tarixi o’qitish.

Amaliy mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: Tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, madaniy, ma'naviy merosni asrash ruhida tabiiyalash

Amaliy mashg'ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: - Bo'lajak o'qituvchida 8-sinf tarix darslarni o'qitishda loyiha metodidan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.

- Bo'lajak o'qituvchida ushbu mavzu bo'yicha foydalanidigan manba, adabiyot va boshqa vositalar bo'yicha tushuncha hosil qilish;

-Tarix fani sohalarini solishtirish malakasiga ega bo'lish;

- Darsni tashkil etish metodikasi bo'yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish;

“O'zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darsliklarida insoniyat tarixining XVI asrdan XIX asrning o'rtalarigacha Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayoti tarixi yoritilgan. Qariyb 350 yilcha davom etgan bu davrda mamlakatimiz hududidagi ijtimoiy-siyosiy hayot, hokimiyat uchun kurash nihoyatda keskinlashadi. So'nggi temuriy shahzodalar o'rtasidagi taxt uchun kurash oqibatida siyosiy inqirozning vujudga kelishi, Bobur Mirzo bilan Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi kurash, tinimsiz davom etgan ichki nizo, taxt uchun kurash misolida bilib olasiz. Turkistonning uch xonlikka bo'linib ketishi, bo'linishning sabablari va oqibatlarini, Buxoro xonligi (amirligi), Xiva xonligi va Qo'qon xonligi misolida, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayoti, davlat boshqaruvi, xonliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ahillik, hamkorlik bo'lmaganligini anglash bilan birga, tegishli xulosalar ham chiqarib olasiz, albatta. Shuningdek, bu davrda qoraqalpoqlar hayotida ham sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlarni, qoraqalpoqlarning xalq bo'lib shakllanishjarayonini o'rganasiz. Ushbu amaliy mashg'ulotda O'rta maktabning 8-sinfida o'tish ko'zda tutilgan loyiha metodi asosida o'tiladigan ma'lum bir mavzu namuna sifatida tahlil qilinadi.

Izoh. *Talaba kelajakda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosda tarix darslarini o'tish ko'nikmiasiga ega bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg'ulotda o'quvchi roliga kiradi.*

Talabalar amaliy mashg'ulotni bajarish uchun tavsiya etiladigan 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligidan loyiha metodi asosida o'tiladigan mavzulari:

1. Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishi.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir.
3. Buxoro xonligi
4. Ashtarxoniylar davrida buxoro xonligi
5. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi, amirlikda davlat tuzumi va ma'muriy boshqariluv
6. O'rta Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari

Ushbu amaliy mashg'ulotda talabalar o'rta maktabning 8-sinf O'zbekiston tarixi fanidan "Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining 8-sinf tarix fanidan "Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

2.O'quv loyihasi: "Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir"

8-sinf o'quvchilarining yoshi, qobiliyati va psixologik holatiga mos ravishda o'quv loyihalari tanlanishi kerak. O'quvchilarga mavzu bo'yicha loyiha tuzish bo'yicha maslahat beriladi. Loyihani amalga oshirish shakli – guruhliy. O'quvchilar besh guruhga bo'linadi. Har bir guruh loyihani amalga oshirish rejasi tuziladi. O'quvchilar reja asosida mavzu yuzasidan yozma manbalar va tarixiy adabiyotlar, badiiy adabiyot, tarixiy obidalar to'g'risida ma'lumot to'planadi. Tarixiy joylarga, muzeylarga ekskurtsiya uyushtiriladi, hujjatli va badiiy filmlarni tahlil qilinadi. To'plangan materialni tahlil qilib, tushunchalar hosil qilinadi. Olingan natijalar yozma tavsif qilinadi. XV asr oxiri—XVI asr boshlarida Turkistonda siyosiy vaziyat, Bobur Mirzo siyosiy kurash maydonida, Bobur Mirzoning Samarqand taxtini egallashi, Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol, Muhammad Shayboniyxon, Movarounnahrda shayboniylar sulolasi

hokimiyatining o'rnatilishi, Bobur Mirzoning Shayboniyxonga qarshi kurashi, Boburiylar saltanati to'g'risida 8-sinf o'quvchilarga tavsiya etiladigan manbaa va adabiyotlar o'quvchining yoshiga mos va tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida konsultant o'qituvchi, adabiyot va geografiya fani o'qituvchilari, ota-onalar yordamiga suyanadi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: XV asr oxiri—XVI asr boshlarida Turkistondagi murakkab siyosiy vaziyat, Bobur Mirzo siyosiy kurash maydonida chiqishi va Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda hokimiyatining o'rnatilishi va Boburiylar saltanati to'g'risida tasavvur, bilim va malakalarini hosil qilish.

Loyihaning maqsadi: Vatanimizning qadimgi tarixi to'g'risida o'quvchilarda tarixiy bilim hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash.
2. To'plangan manba va adabiyotlar ustida ishlash,
3. Mavzuga yuzasidan konferentsiyalar va tarix haftaliklari o'tkazish, taqdimot.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija: o'quvchilar "Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir" mavzusini o'rganish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, konferentsiya o'tkazish va loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari va maktab o'quvchilari.

Loyihaning tarkibi: Taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish "Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir" mavzusining namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllantirishda umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondosh usul va vositalardan foydalanib mavzuni yoritishi mumkin.

Talabalarga loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar:

Mavzuning dolzarbligi: XV asr oxiri—XVI asr boshlarida Turkistonda siyosiy vaziyat, Bobur Mirzo siyosiy kurash maydonida, Bobur Mirzoning Samarqand taxtini egallashi, Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol, Muhammad Shayboniyxon, Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishi, Bobur Mirzoning Shayboniyxonga qarshi kurashi, Boburiylar saltanati tarixi yoritish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: XV asr oxiri—XVI asr boshlarida Turkistondaga murakkab siyosiy vaziyat, Bobur Mirzo siyosiy kurash maydonida chiqishi va Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda hokimiyatining o'rnatilishi va Boburiylar saltanati to'g'risida tasavvur, bilim va malakalarini hosil qilish.

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey.

“Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir” mavzusini loyiha metodi asosida o'tishda konferentsiyalarini uyushtirish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirishda ahamiyati katta. Tarixiy konferentsiyalar sinfdan tashqari ishlarning eng muhim shakllaridan biri bo'lib, o'quvchilarni tarixi faniga oid adabiyotlar bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Konferentsiyalar biron-bir tarixiy muammoga bag'ishlanabo'tkazilishi mumkin. Unga bag'ishlab stendlar, dokladlar, tarixiy adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil qilinishi lozim. Konferentsiya mazmunan quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Dastur materiallarini umumlashtirishiga, tartibga keltirishga bag'ishlanadi.
2. Bilimlarni amalda qo'llashga oid
3. Fanlararo muammolarga oid

Tarixiy konferentsiyaga tayyorgarlik 3-4 hafta oldin boshlanishi kerak. Uning o'tkazilishi o'quvchilarga e'lon qilinishi lozim. Konferentsiya mavzusiga oid adabiyotlar ro'yxati hamda viktorina savollari tavsiya qilinishi yanada yaxshi. Konferentsiya mavzusi ga oid materiallar ixtiyoriy bo'lishi lozim. Tarix fani o'qituvchisi ma'ruzachilarga konsultatsiyalar uyushtirish ularga ma'ruza matni

qanday bo'lishini, zarur adabiyotlar ro'yxati hamda ko'rgazmali qurollar tanlash haqida ko'rsatmalar berishi kerak. Tajribalar shuni ko'rsatayaptiki, 6-8 sinf o'quvchilarini tarix faniga oid adabiyotlarga bag'ishlangan konferentsiyalar qiziqтира, 9-sinf o'quvchilarni tarix fanidagi iqtisodiy-siyosiy muammolarga bag'ishlangan konferentsiyalarga o'quvchilar ancha qiziqadi. Keyingi vaqtlarda konferentsiyalarni “amaliy o'yinlar o'tkazish” tarzida uyushtirish keng yoyilmoqda. Bunda konferentsiya qatnashchilariga jurnalist, elchi, korxona rahbari, broker, ilmiy xodim kabi rollarda chiqish tavsiya qilinadi. Bunday vaqtlarda o'qituvchi rahbarligida o'rta tashlanadigan savollar oldidan tuzib va ko'rib chiqilishi lozim. O'lkashunoslik mavzusiga bag'ishlangan konferentsiyalarda ham o'quvchilar faol qatnashadilar. Ular xilma-xil mavzu va muammolarga bag'ishlanishi mumkin. O'quvchilar o'zlari yashab turgan qishloq, aholi punkti yoki shaharga bag'ishlab ham konferentsiyalar uyushtirishi mumkin. Quyida “Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir” mavzusi bo'yicha uyushtirish mumkin bo'lgan konferentsiya rejasini keltiramiz. Mavjud tarixiy adabiyotlar asosida konferentsiya rejasi oldindan tuzilishi lozim.

1. Bobur - shoh va shoir.

2. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” mavzusida Bobur she'riyatidan namunalar.

3. Hindiston va Boburiylar saltanati.

O'quvchilar mavzuga bag'ishlab konferentsiya jarayonida kinofilmlar namoyish qilishi, she'rlar o'qilishi, mehmonlarning chiqishlari bo'lishi kerak. Konferentsiyadan keyin har xil o'quvchi faoliyati baholanishi kerak. Shundagina darsdan tashqari ishlarga ularning qiziqishlari ortadi.

“Zahiriddin Muhammad Bobur — buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir” mavzusini loyiha metodi asosida o'tishda tarix haftaliklarini uyushtirish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirishda ahamiyati katta. Tarix haftaliklari sinfdan tashqari ishlarning yangi shakllaridan hisoblanadi. Tarix haftaliklari kompleks iadbirlardan iborat bo'lib, uning tarkibiga tarixiy kechalar, konferentsiyalar, tarixiy bilimlar, ko'rik tanlovlar, gazeta, referatlar tanlovi va

hokazolar kirishi mumkin. Haftalik darslardan keyin, haftaning olti kuni jarayonida o'tkaziladi. Uning asosiy maqsadi tarixiy bilimlarni tavsiya qilishdan, ommalashtirishdan iborat. Haftalik uyushtirishdan asosiy maqsad maktabda tarix ta'limi va sinfdan tashqari ishlarning qanday tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Tarix haftaligi odatda maktabning o'quv tarbiya rejasi asosida uyushtiriladi.

Haftalik jarayonida quyidagi tadbirlar uyushtirilishi mumkin:

- tarix haftaligiga tayyorgarlik va uni o'tkazish rejasini tayyorlash;
- tarix fani bo'yicha referatlar tanlovi;
- devoriy gazetalar chiqarish;
- eng yaxshi gazetalar chiqarish;
- korxonlarga, ilmiy muassasalar va muzeylarga ekskurtsiya
- kinofilmlar namoyishi;
- tarixiy kechalar, o'yinlar o'tkazish
- tarixiy konferentsiyalar uyushtirish
- tarixchi olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

Tarix haftaligi tadbirlar qatoriga munozaralarni ham kiritish mumkin. Unda tarix fanidagi dolzarb masalalarni kiritish mumkin. Bunday muammoli masalalar bo'yicha munozara o'tkazishdan maqsad o'quvchilarga tarixiy bilimlarning ahamiyati va zarurligini ko'rsatishdan iborat. Munozaralar o'quvchilarda o'z fikr-mulohazalarini isbotlay olish, himoya qila olish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Tarix faniga oid kitob, maqola va boshqalar munozara manbai bo'lishi mumkin. Munozaralarda qo'yilgan muammoni isbotlay olish, mantiqiylik, o'zgalar fikrlarini hurmat qilish kabi xislatlar asosiy o'rin egallashi kerak.

Port folio: Guruhlarning loyiha bo'yicha qilgan barcha materiallari yig'ma jild (port folio) shakliga keltirilib, tarix o'qituvchisiga topshirildi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Usmonov Q., Jo'raev U., Norqulov N. 8-sinf O'zbekiston tarixi darsligi.T., O'qituvchi. 2011 y.
2. Jo'raev U., Farmonov R. 8-sif Jahon tarixi darsligi. T.: Cho'lpon. 2010 y.

3. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism). Toshkent, 1993 y.
4. Shamsutddinov R , Karimov Sh, Ubaydullayev O'.Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. T., «O'qituvchi», 2009 y.
5. Shamsutddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'.Vatan tarixi.Uchinchi kitob. T., O'qituvchi. 2009 y.
6. [www. Google.uz](http://www.Google.uz) www. Ziyonet.uz

6– amaliy mashg’ulot: *Umumta’lim maktablarining 9-sinf tarix darslarida o’quvchilarni loyiha metodi asosida o’qitishning mazmun mohiyati*

Reja:

1. “Umumta’lim maktablarining 9-sinf tarix darslarida o’quvchilarni loyiha metodi asosida o’qitishning mazmun mohiyati” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning tavsifi
2. Amaliy mashg’ulotning bajarish jarayoni
3. *Ekskursiyalar tashkil etishning o’quvchilar bilim va ko’nikmalarini o’stirishdaga o’rni*

Tayanch iboralar: samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, madaniy-estetik tarbiya, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, ekskursiya, portfolio industrial sivilizatsiya, monopoliya, moliya oligarxiyasi, kapital, xalqaro monopoliyalar, industrial davlatlar

Loyihalash asosida o’qitish ta’lim-tarbiyaning ma’lum bir vazifalarini hal qiladi: loyiha asosida o’qitiladigan har bir ishtirokchida shaxsiy ishonchni o’sishiga yordam berish, uni o’z-o’zini ro’yobga chiqarishi va refleksiyasiga yordam berish: Ko’rsatilganlar “yutuq vaziyati”ni darsda (yoki darsdan tashqari) so’zda emas amalda his qilish orqali, o’quvchi o’zini kerakligi, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega ekanligini bilishiga olib keladi. Loyiha ustida ishlash rejasi yuqori darajadagi aniqlikda tuzilib, amalga oshiriladi.

Amaliy mashg’ulotning ta’limiy maqsadi: Tarix fani o’qituvchilarida “Umumta’lim maktablarining 9-sinf tarix darslarida o’quvchilarni loyiha metodi asosida o’qitishning mazmun mohiyati” mavzusida darsni loyiha metodi asosida o’qitishning o’quv va ko’nikmasini shakllantirish, dars o’tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o’tish ko’nikmasini rivojlantirish, 9-sinf “O’zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darsliklarida insoniyat tarixining XIX asrning 2-yarmidan XX asrning 20-yillarigacha bo’lgan bo’lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayoti tarixi o’qitish.

Amaliy mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: Tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, madaniy, ma'naviy merosni asrash ruhida tabiiyalash

Amaliy mashg'ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: - Bo'lajak o'qituvchida 9-sinf tarix darslarni o'qitishda loyiha metodidan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.

- Bo'lajak o'qituvchida ushbu mavzu bo'yicha foydalanidigan manba, adabiyot va boshqa vositalar bo'yicha tushuncha hosil qilish;

-Tarix fani sohalarini solishtirish malakasiga ega bo'lish;

- Darsni tashkil etish metodikasi bo'yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish;

“O'zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darsliklarida insoniyat tarixining XIX asrning 2-yarmidan XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayoti tarixi yoritilgan. Bu davrda jahon mamlakatlarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yangi bosqich - monopolistik kapitalizm deb ataluvchi bosqich qaror topdi, ishlab chiqarish sohasida monopoliyalar vujudga keldi, moliya oligarxiyasi vujudga keldi, chetga kapital chiqarish muhim ahamiyat kasb etdi, xalqaro monopoliyalar dunyoni bo'lib oldi, dunyoni industrial davlatlar tomonidan hududiy jihatdan taqsimlab olish tugallandi. Ushbu amaliy mashg'ulotda o'rta maktabning 9-sinfida o'tish ko'zda tutilgan loyiha metodi asosida o'tiladigan ma'lum bir mavzu namuna sifatida tahlil qilinadi.

Izoh. Talaba kelajakda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosda tarix darslarini o'tish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg'ulotda o'quvchi roliga kiradi.

Talabalar amaliy mashg'ulotni bajarish uchun tavsiya etiladigan 9-sinf “Jahon tarixi” darsligidan loyiha metodi asosida o'tiladigan mavzulari:

1. Dunyoning ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy manzarasi, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o'zgarishlar
2. Industrial sivilizatsiya

3. G'arbiy Yevropa davlatlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Amerika davlatlari
4. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Germaniya. Imperiyaning tashkil topishi
5. 1914 - 1918-yillardagi birinchi jahon urushi

Amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining 9-sinf tarix fanidan "Industrial sivilizatsiya" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

O'quv loyihasi: "Industrial sivilizatsiya"

9-sinf o'quvchilarining yoshi, qobiliyati va psixologik holatiga mos ravishda o'quv loyihalari tanlanishi kerak. O'quvchilarga mavzu bo'yicha loyiha tuzish bo'yicha maslahat beriladi. Loyihani amalga oshirish shakli – guruhliy. O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruh loyihani amalga oshirish rejasi tuziladi. O'quvchilar reja asosida mavzu yuzasidan yozma manbalar va tarixiy adabiyotlar, badiiy adabiyot, tarixiy obidalar to'g'risida ma'lumot to'planadi. Tarixiy joylarga, muzeylarga ekskurtsiya uyushtiriladi, hujjatli va badiiy filmlarni tahlil qilinadi. To'plangan materialni tahlil qilib, tushunchalar hosil qilinadi. Olingan natijalar yozma tavsif qilinadi. Bu davrda jahon mamlakatlarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yangi bosqich - monopolistik kapitalizm deb ataluvchi bosqich qaror topdi, ishlab chiqarish sohasida monopoliyalar vujudga keldi, moliya oligarxiyasi vujudga keldi, chetga kapital chiqarish muhim ahamiyat kasb etdi, xalqaro monopoliyalar dunyoni bo'lib oldi, dunyoni industrial davlatlar tomonidan hududiy jihatdan taqsimlab olish tugallandi. Mavzu yuzasidan 9-sinf o'quvchilarga tavsiya etiladigan manbaa va adabiyotlar o'quvchining yoshiga mos va tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida konsultant o'qituvchi yordamiga suyanadi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: G'arbiy Yevropa va AQSHda industrial sivilizatsiya uzil-kesil qaror topishi, shaharlarning juda tez o'sishi va rivojlanishi, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari, burjuaziya va o'rta qatlamlarining paydo bo'lishi sabablari to'g'risida to'g'risida tasavvur, bilim va malakalarini hosil qilish.

Loyihaning maqsadi: G'arbiy Yevropa va AQSHda industrial sivilizatsiya uzil-kesil qaror topishi to'g'risida o'quvchilarda tarixiy bilim hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir adabiyot va manbalarni to'plash.
2. Matn va axborot manbalari bilan ishlash.
3. Mavzuga doir slayd tayyorlash, ekskurtsiya uyushtirish, taqdimot

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija: o'quvchilar "Industrial sivilizatsiya" mavzusini o'rganish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, ekskurtsiya uyushtirish va loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari va maktab o'quvchilari.

Loyihaning tarkibi: Taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish "Industrial sivilizatsiya" mavzusining namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllantirishda umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondosh usul va vositalardan foydalanib mavzuni yoritishi mumkin.

Talabalarga loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar:

Mavzuning dolzarbligi. Jahon mamlakatlarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yangi bosqich - monopolistik kapitalizm deb ataluvchi bosqich qaror topdi, ishlab chiqarish sohasida monopoliyalar vujudga keldi, moliya oligarxiyasi vujudga keldi, chetga kapital chiqarish muhim ahamiyat kasb etdi, xalqaro monopoliyalar dunyoni bo'lib oldi, dunyoni industrial davlatlar tomonidan hududiy jihatdan taqsimlab olish tugallanish jarayonlari tarixi yoritish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish lozim. Biroq, bu tajribalarga ko'r-ko'rona yondashmasdan, o'zimizning milliy ehtiyojlarimizdan kelib chiqib, eng maqbul shakllarini tanlash to'g'risida bilim va malakalarini hosil qilish.

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey.

“Industrial sivilizatsiya” mavzusini loyiha metodi asosida o'tishda ekskurtsiyalarini uyushtirish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirishda ahamiyati katta. O'quvchilarda mavzuning sanoatlashish jarayolariga mosligi uchun Navoiy viloyatidagi sanoat ob'ektlariga sayohat, ekskurtsiya shaklida dars mavzuni tashkil etish jarayoni tashkil etish o'z samarasini beradi. Shu asnoda tarix o'quv jarayoni tashkil etishda ekskurtsiyalarni tashkil etish haqida.

Ta'limni tashkil qilishning xilma-xil shakllari ichida ekskurtsiyaning ahamiyati katta. Ekskurtsiya lotincha-exsichcho- (ekskurro) so'zidan olingan bo'lib, yugurib chiqaman degan ma'noni bildiradi. Ekskurtsiya ta'lim-tarbiya ishlarining bir turi biri bo'lib, o'rganilayotgan ob'ektni uning turgan joyida bevosita ko'rib, idrok etish asosida o'tkaziladi.

Ekskurtsiya quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

1. Ob'ektni bevosita ko'z bilan ko'rib o'rganiladi va o'zlashtiradi.
2. Maktab hududidan chiqib ketish talab qilinadi.
3. O'rganilayotgan buyum yoki ob'ektni uning turgan joyida tekshirish talab qilinadi.
4. Ekskurtsiyalarga olib borish tarixiy tasavvur va tushunchalar hosil qilishda eng muhim vosita hisoblanadi.

Ekskurtsiya bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlikni mustahkamlaydi. Real dunyoni, ob'ektiv hodisalarni aloqasi va o'zaro bog'liqlikni ilmiy ravshida tekshirishga o'rgatib ko'nikma va malakalar hosil qiladi. Ekskurtsiya mazmunan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ko'rsatib borishni maqsad qilib boriladigan ekskurtsiya. Bunda ob'ekt o'quvchilarga tushurtiriladi. Masalan, tarixiy ob'ektlarga, qadamjolariga ekskurtsiya tashkil qilish.
 2. Tasviriy ekskurtsiya. Ekskurtsiyaga borilgan joydagi ob'ekt tasvirlanadi.
- Ekskurtsiya ushtirish rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Oy, kun, sinf

2. Ekskurtsiya mavzusi
3. Ekskurtsiya maqsadi
4. Mashrut ekskurtsiya o'tkaziladigan joy va ko'zdan kechiriladigan ob'ektlar.
5. Ekskurtsiya uchun zarur asboblari
6. Ekskurtsiyani o'tkazilishi (borish, kelish ko'zdan kechiriladi)
7. Ekskurtsiyaga yig'ilgan materiallarni tartibga solish
8. O'lkani o'rganish ekspozitsiyasini yig'ilgan materiallar bilan boyitish
9. Devoriy gazeta uchun ekskurtsiya haqida maqola yozish.

Ekskurtsiya uyushtirish mavzuni o'rganishdan oldin ham, mavzuni o'tib bo'lgandan keyin ham uyushtirish mumkin. Agar ekskurtsiya mavzusini o'rganishdan oldin amalga oshirilsa, uning asosiy maqsadi oldida tarixiy tushunchalarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan tasavvurlarni hosil qilishdan iborat bo'ladi. Ekskurtsiyalarni uyushtirish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Bular: tayyorgarlik, ekskurtsiyani uyushtirish, ekskurtsiya yakunlash, yig'ilgan materiallarni qayta ishlash, materiallardan darslarda foydalanish va h.k. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda tayyorgarligi asosiy o'rin egallaydi. O'qituvchi tayyorgarlik jarayonida ekskurtsiyaga boriladigan ob'ekt uchun zarur bo'ladigan adabiyotlar va boshqa materiallarni tayyorlaydi. Tarix fani o'qituvchisi ekskurtsiya ob'ektini adabiyotlar, mahalliy materiallar, aholi yordamida atroflicha o'rganadi. Keyinchalik ekskurtsiya mashruti belgilanadi. Tayyorgarlik jarayonida ekskurtsiyada qanday masalalarni o'rganish zarurligiga e'tibor qaratiladi. Ekskurtsiyaga boriladigan mashrutni avvalo o'zi ko'rib chiqishi o'quvchilarni nimalarni ko'rishi, nimalarni yozishi, chizishi, qaysi ob'ektni rasmga tushurishi, qanday amaliy imshlarni bajarishi kerakligi aniqlab olinadi.

Ekskurtsiya o'tkazuvchini o'quvchilar diqqatini nimalarga qaratish kerakligi, hamda ekskurtsiya maqsadi vazifalari, mashruti, rejasi, to'xtash joylariga borishda mutaxassisni ogohlantiriladi. Ekskurtsiya jarayonida o'quvchilar albatta texnika xavfsizligi masalalariga rioya qilish kerak. Ma'lumki, barcha ekskurtsiyalarning maqsadi tarixiy ob'ekt haqida tarixiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Ekskurtsiya paytida o'quvchilar faolligini oshirish masalalari ham o'quvchining

diqqat markazida bo'lishi lozim. Ayniqsa yosh o'qituvchilar ekskurtsiya davomida o'quvchilarga beriladigan savollarni oldindan tayyorlab qo'yishlari maqsadga muvofiq.

Port folio: Guruhlarning loyiha bo'yicha qilgan barcha materiallari yig'ma jild (port folio) shakliga keltirilib, tarix o'qituvchisiga topshirildi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tillaboyev S., Zamonov A. 9-sinf O'zbekiston tarixi T.: Sharq, 2010 y.
2. Lafasov M., Xoliqov E., Qodirova D., Jo'rayev U., 9-sinf Jahon tarixi. T.: O'qituvchi. 2011 y.
3. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism). Toshkent, 1993 y.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001 y., I-XII jild.
5. [www. Google.uz](http://www.Google.uz) www. Ziyonet.uz

7– amaliy mashg'ulot: *Tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini tashkil etishda loyiha metodi foydalanish*

Reja:

1. “Tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini tashkil etishda loyiha metodi foydalanish” mavzusidagi amaliy mashg'ulotning tavsifi
2. Amaliy mashg'ulotning bajarish jarayoni
3. Takrorlash-umumlashtirish darslarda testlar va fan olimpiadalarini tashkil qilish metodlarining ahamiyati

Tayanch iboralar: takrorlash-umumlashtirish darslari, samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, hikoya, test, fan olimpiadalari, xaritalar bilan ishlay olishini, tarixiy atamalar, axborot texnologiyalar, portfolio

Tarix o'qitish jarayonini loyihalash fani o'rta maktab, litsey va kollejda tarix ta'limining amalga oshirishning samarali natijalari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Loyihalash metodini qo'llash jarayonida ta'lim beruvchi loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta'lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to'g'risida ma'lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o'tadi. Tarix o'qitish jarayonini loyihalashtirish fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Loyihalash metodi bo'yicha o'tiladigan har bir dars mashg'uloti, darsdan tashqari tadbirlar va boshqa ishlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samarasini yanada oshiradi.

Amaliy mashg'ulotning ta'limiy maqsadi: Tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida o'tish darsni loyiha metodi asosida o'qitishning o'quv va ko'nikmasini shakllantirish, dars o'tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida

o'tish ko'nikmasini rivojlantirish, o'tilgan darslik, bo'lim, bob, mavzu yakunida olingan bilim va malakalarni mustahkamlash.

Amaliy mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: Tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, madaniy, ma'naviy merosni asrash ruhida tabiyalash

Amaliy mashg'ulotning rivojlantiruvchi maqsadi:

- Bo'lajak o'qituvchida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini o'tish jarayonida loyiha metodidan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.
- Bo'lajak o'qituvchida yakunlangan darslik, bo'lim, bob yoki mavzu bo'yicha foydalanidigan manba, adabiyot va boshqa vositalar bo'yicha tushuncha hosil qilish;
- Tarix fani sohalarini solishtirish malakasiga ega bo'lish;
- Darsni tashkil etish metodikasi bo'yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish;

Ushbu amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning tarix darslaridan takrorlash umumlashtirish darslarida loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

Izoh. Talaba kelajakda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosida tarix darslarini o'tish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg'ulotda o'quvchi roliga kiradi.

Amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining tarix fanidan "Tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini tashkil etishda loyiha metodi foydalanish" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

O'quv loyihasi: "Tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini tashkil etishda loyiha metodi foydalanish"

Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida dars o'tish tashkil etishda yakunlangan darslik, bo'lim, bob yoki mavzuga

mos, o'quvchilarning yoshi, psixologiyasi va qobiliyatiga mos keladigan o'quv loyihalari tanlanishi kerak. O'quvchilarga mavzu bo'yicha loyiha tuzish bo'yicha maslahat beriladi. Loyihani amalga oshirish shakli–guruhiy yoki alohida (individual) tarzda ham bo'lishi mumkin. Takrorlanadigan yoki umumlashtiriladigan mavzu yuzasidan o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalar reja asosida manbalar va tarixiy adabiyotlar, badiiy adabiyot, tarixiy obidalar ma'lumotlariga suyaniladi. Tarixiy joylarga, muzeylarga ekskurtsiya uyushtiriladi, hujjatli va badiiy filmlarni tahlil qilinadi. To'plangan materialni tahlil qilib, tushunchalar hosil qilinadi. Olingan natijalar yozma tavsif qilinadi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida o'tishni tashkil qilish.

Loyihaning maqsadi: Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida dars o'tish tashkil etish malakasini hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir adabiyot va manbalarni to'plash.
2. Matn va axborot manbalari bilan ishlash.
3. Mavzuga doir slayd tayyorlash, test tayyorlash, tarix fanidan olimpiadalar uyushtirish, taqdimot

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija: Tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida o'qitish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, test tayyorlash, tarix fanidan olimpiadalar uyushtirish va loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilari, “Tarix o'qitish metodikasi” ta'lim yo'nalishi talabalari.

Talabalarga loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar:

Mavzuning dolzarbligi. Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida dars o'tish tashkil etishda yakunlangan darslik, bo'lim, bob yoki mavzuga mos, o'quvchilarning yoshi, psixologiyasi va qobiliyatiga mos keladigan o'quv loyihalari tanlanishi, DTS me'yorlari asosida egallanishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmani shakllantirish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida o'tishni tashkil qilish.

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey.

Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilarida tarix fanidan takrorlash-umumlashtirish darslarini loyiha metodi asosida o'tishda testlar sinovlarining ahamiyati katta. Barcha fanlar qatori keyingi yillarda tarix ta'limida o'quvchilar bilimini tekshirishda test savollari asosidagi topshiriqlar keng qo'llanmoqda. Bu savol an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, o'quvchi javoblarining mutlaqo to'g'ri yoki ob'ektiv bo'lishini ta'minlash bilan birga, bilimlarni kompyuter orqali tekshirish imkonini ham beradi. Qisqa vaqt ichida bir yo'la butun sinf o'quvchilarining javoblarini tekshirish imkoniyati tug'iladi. Ya'ni bu metodda o'rganilgan hamma masalalarning ular tomonidan qanday uyushtirganliklarini bir yo'la aniqlash mumkin. Testning afzalligi shundaki, o'quvchilarning qaysi mavzularni to'liq, qaysi mavzularni qisman, qaysilarni zaif o'zlashtirganini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Test so'zi inglizcha bo'lib, "test"-sinov yoki tajriba ma'nosini bildiradi. Ta'lim sohasidagi qo'llaniladigan testlar shartli ravishda pedagogik bilim testlari deb ataladi. O'quvchilarning egallagan bilimlari testning "kaliti" yordamida tekshirilib chiqiladi. Testlar ma'lum ehtimollik bilan odamdagi mavjud bilim, ko'nikma, shaxsiy tavsifatlar va h.k. rivojlanishining dolzarb darajasini aniqlash imkoniyatini beradi. Testlarning eng

asosiy maqsadi o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlashdan iborat. Ta'lim jarayonida testlarni tuzish qoidalariga rioya qili zarur.

- testlar faqat dastur asosida tuziladi.
 - Test savollari "soddadan murakkabga" tamoyidiga asoslanib tuzilishi zarur. Dastlab osonroq testlarni, keyinroq murakkabroq testlarni bajarishi ularni psixologik jihatdan va vazifalarini muvaffaqiyatli bajariga tayyorlaydi.
- Testlar didaktik nuqtai nazardan quyidagi turlari keng tarqalgan. Ulardan ta'lim mazmuni yo'nalishiga ko'ra foydalaniladi.

1. ommaviy standart testlar. Bunday testlar muayyan fan mutaxassisleri tomonidan tuziladi va maktab o'quvchilari uchun tavsiya etiladi. Ular dastur asosida tuziladi.
2. rasmiy bo'lmagan testlar. Bu testlar har bir o'qituvchi tomonidan tuzilishi mumkin. Ular har bob, mavzu o'tib bo'linganda qo'llaniladi.
3. ko'p javobli testlar. Bunday testlarda bitta savolga 4-5 ta javob bo'lishi mumkin.
4. faqat bitta javobdan iborat bo'lgan testlar
5. to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan savollardan iborat bo'lgan testlar
6. tushirib qoldirilgan so'zlarni to'ldirishga mo'ljallangan testlar.
7. berilgan savollar to'g'risida javob yoziladigan tarzdagi testlar.
8. rasmiy yoki chizmali testlar
9. jadval tarzidagi testlar

Testlar yordamida olingan natijalar reyting bilan tartibga keltiriladi va tasdiqlanadi. Shuningdek, mashg'ulotlarni o'tish jarayonida olimpiadalarini uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Olimpiada darsdan tashqari ishlarning eng muhim turlaridan sanaladi. U o'quvchilarning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini va bilish faoliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tarix bo'yicha uyushtiriladigan olimpiadalar o'quvchilarning eng keng tarqalgan ommaviy musobaqalaridan biri hisoblanadi. Tarix olimpiadalarini uyushtirishdan asosiy maqsad:

1. o'quvchilarning tarixni bilishi va xaritalar bilan ishlay olishini, tarixiy atamalarni qo'llay olish va h.
2. testlar bilan ishlash

3. tarixiy binolarga ta'rif bera olishi
4. tarixiy shaxslar haqida bilim bera olishi
5. atamalar bilan ishlay olishi
6. biror bir tarixiy jarayon to'g'risida bilimga ega bo'lishi

Tarix fani olimpiadalari o'quvchilarning kelgusida qanday kasb egasi bo'lishini tanlashda ham katta ahamiyatga ega. Olimpiadalarni ilmiy tekshirish ilmgohlari, oliyi o'quv yurtlari bilan hamkorlik uyushtirish kerak. Olimpiadalar natijalar savollarga qo'yilgan ochkolaroni yakunlash bilan aniqlanadi. Topshiriqqa puxta, to'g'ri javob bergan o'quvchilar g'olib deb topiladi. Tarix fani bo'yicha olimpiadalar 4 turda uyushtiriladi; birinchi tur maktab olimpiadasi, ikkinchi tur tuman olimpiadasi, uchinchi tur viloyat olimpiadasi, to'rtinchi tur respublika olimpiadasi. Ularni o'tkazish muddatlari alohida belgilanadi. Savollar turdan-turga murakablashib boradi.

Olimpiadani tayyorlashning eng muhim qismlaridan biri savol va topshiriqlarni tuzishdan iborat. Tuziladigan savollar dastur talablariga mos bo'lishi lozim. Olimpiada savollari mazmunan boy, o'quvchilarni qiziqitira oladigan, o'quvchilar o'z bilimlarini yangi sharoitlarda qo'llaydigan darajada bo'lishi, eng muhimi savollar o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga undaydigan bo'ilish kerak. Olimpiadani uyushtirishda barcha o'quvchilarga bir xil sharoit yaratilishi kerak. Tavsiya qilinadigan savollar murakkab, chinal qilib tuzish yaramaydi. Eng muhimi, qo'yiladigan savollar barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lgani maqul. Savollar imkoni boricha muammoli qilib tuzish va taqqoslash xarakteriga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, u yoki bu hodisalarning qonuniyatlarini ochib berish, statistik ma'lumotlardan foydalana olish, tarixiy jarayonlar va tarixiy shaxslarga o'zining mustaqil fikrini bildirish lozim. Beriladigan savollar nazariy va test usullaridan iborat bo'lishi mumkin.

Port folio: Guruhlarning loyiha bo'yicha qilgan barcha materiallari yig'ma jild (port folio) shakliga keltirilib, tarix o'qituvchisiga topshirildi.

8–amaliy mashg’ulot: *Maktab tarix ta’limida sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi*

Reja:

1. “Maktab tarix ta’limida sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning tavsifi
2. Amaliy mashg’ulotning bajarish jarayoni
3. Sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etishda testlar va fan olimpiadalarini tashkil qilish metodlarining ahamiyati

Tayanch iboralar: sinfdan tashqari mashg’ulotlar, takrorlash-umumlashtirish darslari, samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, hikoya, viktorina, darslik matni, axborot manbalari, tarixiy kechalar, portfolio

Loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo’llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualari o’qitish usulini amalga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o’qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. Loyihalarda o’qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o’zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo’lishi mumkin. Loyihalash metodini qo’llash jarayonida ta’lim beruvchi loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta’lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to’g’risida ma’lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o’tadi. SHu sababli o’quv jarayonini loyiha metodi asosida tashkil qilish o’quvchilarning mavzu yuzasidan oladigan bilim va ko’nikmalarni olish samaradorligi oshiradi.

Amaliy mashg’ulotning ta’limiy maqsadi: Tarix fanidan sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish o’qituvchilarida o’quv va ko’nikmasini shakllantirish, dars o’tishda foydalaniladigan vositalarni

bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o'tish ko'nikmasini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, madaniy, ma'naviy merosni asrash ruhida tabiyalash

Amaliy mashg'ulotning rivojlantiruvchi maqsadi:-Bo'lajak o'qituvchida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.

- Bo'lajak o'qituvchida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha foydalanidigan manba, adabiyot va boshqa vositalar bo'yicha tushuncha hosil qilish;

-Tarix fani sohalarini solishtirish malakasiga ega bo'lish;

- Darsni tashkil etish metodikasi bo'yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish;

Mavzular bo'yicha bajariladigan loyihalarning o'ziga xos xususiyatlarni tushuntiriladi. Loyiha metodi asosida o'tiladigan darsning maqsadi belgilanadi. Darsning jihozi aniqlashtiriladi. Loyiha asosida o'tiladigan darsda o'quvchilar o'zlashtirib olishlari zarur bo'lgan asosiy tushunchalar muhokama qilinadi. O'tiladigan dars rejasi belgilanadi. Ushbu amaliy mashg'ulotda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi asosida o'tish tahlil qilinadi.

Ushbu amaliy mashg'ulotda talabalar sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

Muhokama jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchisi o'quvchilarga sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi asosida o'tish jarayonidan mavzusiga oid ushbu adabiyotlarni tavsiya etadi. Ushbu amaliy mashg'ulotda talabalar o'quvchilarga sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

Izoh. Talaba kelajakda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosda tarix darslarini o'tish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Amaliy

mashg'ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg'ulotda o'quvchi roliga kiradi.

Amaliy mashg'ulotda talabalar umumta'lim maktablarining tarix fanidan "Maktab tarix ta'limida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

O'quv loyihasi: "Maktab tarix ta'limida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodi"

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, qobiliyati va psixologik holatiga mos ravishda o'quv loyihalari tanlanishi kerak. O'quvchilarga sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha loyiha tuzish bo'yicha maslahat beriladi. Loyihani amalga oshirish shakli – yakka yoki guruhiiy shaklda bo'ladi. O'quvchilar reja asosida mavzu yuzasidan yozma manbalar va tarixiy adabiyotlar, badiiy adabiyot, tarixiy obidalar to'g'risida ma'lumot to'planadi. Tarixiy joylarga, muzeylarga ekskurtsiya uyushtiriladi, hujjatli va badiiy filmlarni tahlil qilinadi. To'plangan materialni tahlil qilib, tushunchalar hosil qilinadi. Olingan natijalar yozma tavsif qilinadi. O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida konsultant o'qituvchi, ota-onalar yordamiga suyanadi. Bu ota-ona va o'quvchi o'rtasidagi muloqot vaqtini ko'paytiradi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

Loyihaning maqsadi Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari aniqlash va ishlab chiqish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash.
2. To'plangan manba va adabiyotlar ustida ishlash,
3. Mavzuga doir slayd tayyorlash, viktorina va tarixiy kechalar tashkil qilish, taqdimot.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija: o'quvchilar sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanishga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, viktorina, tarixiy kechalar tashkil qilish va loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari va maktab o'quvchilari.

Loyihaning tarkibi: Taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanishning namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllantirishda umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondosh usul va vositalardan foydalanib mavzuni yoritishi mumkin.

Talabalarga loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun ko'rsatmalar:

Mavzuning dolzarbligi: Tarix fanidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish o'qituvchilarida o'quv va ko'nikmasini shakllantirish, dars o'tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o'tish ko'nikmasini rivojlantirish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari aniqlash va ishlab chiqish.

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirish samaralidir. Viktorinalar o'quvchilarning eng qiziqib qiziqadigan mashg'ulotlardan biridir. Viktorinalar bu avvalo, o'yindir. Mabodo o'yinlarda qiziqarlik alomati bo'lmasa, u o'yin bo'la olmaydi. Tarix faniga doir viktorinalari ikki guruhga ajratish mumkin:

3. Mavzuli viktorinalar

4. Aralash viktorinalar

Masalan “Ilk o’rta asrlardagi davlatlar” mavzusidagi viktorina savollari:

1. Xorazm davlati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Xioniyalar davlati qanday qaror topdi?
3. Yurtimizga toxtarlarning kimb kelishi qanday yuz berdi?
4. Eftallar va ular tuzgan davlat haqida nimalarni bilasiz? va hokazo

Aralash viktorinalar tarixiy bilimlarning turli sohalariga bag’ishlanishi mumkin. Masalan, O’zbekiston va jahon tarixi fanlarning sohalariga bag’ishlanadi. Bunday viktorinalar to’garaklarda, ekskurtsiyalar davomida o’tkazilishi mumkin.

1. So’g’d konfederatsiyasi nima?
2. Dehqonlar, kashovarlar, kadivarlar
3. ilk o’rta asr Evropasi va O’rta Osiyoni taqqoslang
4. Franklar, germanlar, gotlar kimlar?

Viktorinalar uyushtirishdagi muhim qiyinchiliklardan biri savollar tuzish hisoblanadi. Savollar mazmunan xilma-xil bo’lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

5. Doimiy materiallarni bilishni talab qiluvchi savollar, birinchi guruhga kiradi, masalan:

6. Ikkinchi guruh savollari o’quvchilarda tushunchalarni qanchalik egallanganlarini tekshirish uchun beriladi.

7. Uchinchi guruh savollari tarixiy atamalarni bilishga oid bo’lishi mumkin.

8. to’rtinchi guruh savollari o’quvchilarning dunyoqarashini, topqirligini tekshirib ko’rishga mo’ljallangan bo’lishi mumkin.

Shuningdek, maktab tarix ta’limida sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etishda tarixiy kechalarni uyushtirilishi o’quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatini o’stirishi bilan birga ularda tarixiy tafakkur va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi. O’quvchilar tarixiy kechalarni uyushtirishda quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim. Tarixiy kechalar darsdan tashqari ishlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri sanaladi. Tarixiy kechalar o’quvchilarni zarur tarixiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki

ularning yaxshi hordiq chiqarishlariga yordam beradi. Tarixiy kechalar sinfdan tashqari ishlarining ko'pgina turlarini o'zida mujassamlashtiradi, bularga: ma'ruzalar, devoriy gazetalar chiqarish, viktorinalar, KVN, badiiy ism atoqli kishilar bilan uchrashuvlarni misol qilish mumkin. Geografik kechalarni mavzui rang-barang bo'lib ular turli voqealarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Jumladan tarixiy jarayonlar, tarixiy shaxslar, voqealar va hokazolarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin.

Tarixiy kechalarni tayyorlashda quyidagi tavsiyalarga e'tibor berish kerak:

- kecha mavzusini belgilash;
- kecha uchun zarur adabiyotlarni aniqlash va to'plash
- kechaga tayyorgarlik ko'rish va uni bezash
- kecha uchun tartib tuzish (stsenariy yozish)

kechalar mavzuini tanlashga o'quvchilarni ham jalb qilish lozim. Kecha o'quvchilarga 1.5-2 oy oldin e'lon qilinishi kerak. Kechani o'tkazishda o'quvchilarni 2 guruhga bo'lish maqsadga muvofiq. Kechaning tashkiliy qismiga ma'sul guruh va kechaga ma'sul guruh. Tarixiy kechalar katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quvchilarda biron-bir kasbga, fanga qiziqishlarini yanada oshirishda ularni o'z yurtini sevrishga o'rgatishda kechalar ta'sirchan omildir.

Port folio: Guruhlarning loyiha bo'yicha qilgan barcha materiallari yig'ma jild (port folio) shakliga keltirilib, tarix o'qituvchisiga topshirildi.

9–amaliy mashg’ulot: Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining tarix darslarida loyiha metodi asosida dars mashg’ulotlarini o’tkazish.

Reja:

1. “Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining tarix darslarida loyiha metodi asosida dars mashg’ulotlarini o’tkazish” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning tavsifi
2. Amaliy mashg’ulotning bajarish jarayoni
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining tarix darslarida loyiha metodi asosida dars mashg’ulotlarini o’tkazish Sinf dan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etishda testlar va fan olimpiadalarini tashkil qilish metodlarining ahamiyati

Tayanch iboralar: sinfdan tashqari mashg’ulotlar, takrorlash-umumlashtirish darslari, samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, tarixiy kechalar, konferentsiyalar, tarixiy bilimlar, ko’rik tanlovlar, gazeta, referatlar tanlovi, portfolio

Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining tarix fanidan yuqori malakali o’qituvchilar tayyorlashda tarix o’qitish jarayonini loyihalashtirish fani muhim o’rin tutadi. Global axborot texnologiyalari asri bo’lgan XXI asrda o’rta maktab tarix o’qituvchisi o’quvchilarga tarix fanidan bilim berishda ta’lim berishning yangi metod va usullaridan foydalanishi kerak. Loyihalash metodi ana shunday ilg’or, zamon talabiga mos metod hisoblanadi. Bo’lg’usi tarix o’qituvchilariga bu metodning mohiyat-mazmuni va uni o’rta maktab tarix ta’limi amaliyotida qo’llashning bilim va ko’nikmalarni singdirish tarix o’qitish jarayonini loyihalash fanining asosiy maqsadidir. Bo’lajak tarix o’qituvchilariga loyihalash metodining mohiyat-mazmuni to’g’risida bilim hosil qilish, loyihalash metodini o’rta maktab, litsey va kollej tarix ta’limida amalda qo’llash malakasini singdirishi lozim.

Amaliy mashg’ulotning ta’limiy maqsadi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining tarix fani o’qituvchilari tarix darslarida loyiha metodi asosida dars

mashg'ulotlarni tashkil etish ko'nikmasini shakllantirish, dars o'tishda foydalaniladigan vositalarni bilish va aniqlashtirish, darsni loyiha metodi asosida o'tish ko'nikmasini rivojlantirish, Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining "O'zbekiston tarixi" darsligi ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qismida 1917 yildan 1991 yil O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishgacha bo'lgan davri bo'lsa, ikkinchi qismida mustaqillik davri tarixi o'zida aks etgan va "Jahon tarixi" darslikligida jahon mamlkatalari va xalqlarining 1918 yildan hozirgi kungacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayoti tarixi o'qitish.

Amaliy mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: Tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, madaniy, ma'naviy merosni asrash ruhida tabiyalash

Amaliy mashg'ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: Bo'lajak o'qituvchida Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tarix darslarida loyiha metodi asosida dars mashg'ulotlarini o'qitishda loyiha metodidan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.

- Bo'lajak o'qituvchida ushbu mavzu bo'yicha foydalanidigan manba, adabiyot, OAV va boshqa vositalar bo'yicha tushuncha hosil qilish;
- Tarix fani sohalarini solishtirish malakasiga ega bo'lish;
- Darsni tashkil etish metodikasi bo'yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish;

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining "O'zbekiston tarixi" darsligi ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qismida 1917 yildan 1991 yil O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishgacha bo'lgan davri bo'lsa, ikkinchi qismida mustaqillik davri tarixi o'zida aks etgan va "Jahon tarixi" darslikligida jahon mamlkatalari va xalqlarining 1918 yildan hozirgi kungacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotini o'zida aks ettirgan. Ushbu amaliy mashg'ulotda Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'tish ko'zda tutilgan loyiha metodi asosida o'tiladigan ma'lum bir mavzu namuna sifatida tahlil qilinadi.

Izoh. Talaba kelajakda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida tarix fani o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli loyiha metodi asosda tarix darslarini o'tish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Amaliy

mashg'ulotda talaba maktab dasturidan kelib chiqqan holda mashg'ulotda o'quvchi roliga kiradi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tarix o'qituvchisi Jahon tarixi fanidan o'quvchilarga loyiha metodi asosida dars o'tish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- | | |
|--|--------------------------|
| 1. Dunyo XX-XXI asr boshlarida | 2. Xalqaro munosabatlar |
| 3. Sovet davlati | 4. Ikkinchi jahon urushi |
| 5. Osiyoning yangi industrial davlatlari | 6. Fan va madaniyat |

Izoh. Kalendar reja bo'yicha o'tiladgan mavzular nomlari o'quv loyihasida boshqacha nomlanishi mumkin. Chunki bajariladigan o'quv loyihasi mavzu doirasidan chiqishi muqarrar. Masalan, "Osiyoning yangi industrial davlatlari" mavzusi loyiha metodi asosida o'rganilganda nafaqat siyosiy tarix, balki madaniy hayot, demografik jarayonlarga ham e'tibor qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotda talabalar akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tarix fanidan "Osiyoning yangi industrial davlatlari" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tahlil qilinadi.

O'quv loyihasi: "Osiyoning yangi industrial davlatlari" loyiha topshirig'i

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining yoshi, psixologik holatidan kelib chiqqan holda o'quv loyihasi tanlanishi kerak. Loyihani amalga oshirish guruhli shaklda bo'lib, o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh loyihani amalga oshirish rejasi tuziladi. O'quvchilar reja asosida mavzu yuzasidan manbalar va tarixiy adabiyotlar, materiallar, OAVda namoyish etilgan yoki chop etilgan ko'rsatuvlar, hujjatli va badiiy filmlar, eshittirishlar, maqollar, internet materiallari asosida to'planadi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari jahon tarixi darsligidagi "Osiyoning yangi industrial davlatlari" mavzusidagi XX asrning 60-80 yillarida rivojlanayotgan davlatlar orasida yangi industrial davlatlarning ajralib chiqishi, BMT tomonidan yangi industrial davlatlar uchun berilgan ko'rsatgichlari, chet el sarmoyasining kiritilishi, YaID iqtisodiy taraqqiyot modeli, Janubiy Koreya, Singapur, Indoneziya, Myanma (Birma) ittifoqi, Malayziya

davlatlarining rivojlanish omillari to'g'risida bilim va malakalarini hosil qilinadi. O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida konsultant o'qituvchi yordamiga suyanadi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Osiyoning yangi industrial davlatlari juda tez sur'atda o'sishi va rivojlanishi sabablari

Loyihaning maqsadi: G'arbiy Yevropa va AQSHda industrial sivilizatsiya uzil-kesil qaror topishi to'g'risida o'quvchilarda tarixiy bilim hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash.
2. To'plangan manba va adabiyotlar ustida ishlash,
3. Mavzuga doir slayd tayyorlash, konferentsiya uyushtirish, tarixiy klublar tashkil qilish, taqdimot.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija: XX asrning 60-80 yillarida rivojlanayotgan davlatlar orasida yangi industrial davlatlarning rivojlanish omillari to'g'risida bilim va malakalarini hosil qilish, mavzuni o'rganish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, mavzuga doir slayd tayyorlash, konferentsiya o'tkazish va loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari va o'quvchilar.

Loyihaning tarkibi: Taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish "Osiyoning yangi industrial davlatlari" mavzusining namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllantirishda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarix fani o'qituvchilari, "Tarix o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondosh usul va vositalardan foydalanib mavzuni yoritishi mumkin.

Talabalarga loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar:

Mavzuning dolzarbligi: Jahon mamlakatlarida XX asrning 60-80 yillarida rivojlanayotgan davlatlar orasida yangi industrial davlatlar(YaID)ning ajralib

chiqishi, YaID iqtisodiy taraqqiyot modeli, Janubiy Koreya, Singapur, Indoneziya, Myanma (Birma) ittifoqi, Malayziya davlatlarining rivojlanishi jarayonlari tarixi yoritish.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Osiyoning yangi industrial davlatlari juda tez sur'atda o'sishi va rivojlanishi sabablari o'rgangan holda, taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish

Loyihaning ob'ekti: Maktab, akademik litsey, kasb hunar kollej, oliy o'quv yurti, ARM, muzey.

“Osiyoning yangi industrial davlatlari” mavzusini loyiha metodi asosida o'tishda konferentsiya uyushtirish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'stirishda ahamiyati katta. Konferentsiyalar sinfdan tashqari ishlarning eng muhim shakllaridan biri bo'lib, o'quvchilarni tarixi faniga oid adabiyotlar bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Konferentsiyalar biron-bir tarixiy muammoga bag'ishlanabo'tkazilishi mumkin. Unga bag'ishlab stendlar, dokladlar, tarixiy adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil qilinishi lozim. Konferentsiya mazmunan quyidagicha bo'lishi mumkin.

4. Dastur materiallarini umumlashtirishiga, tartibga keltirishga bag'ishlanadi.
5. Bilimlarni amalda qo'llashga oid
6. Fanlararo muammolarga oid

Tarixiy konferentsiyaga tayyorgarlik 3-4 hafta oldin boshlanishi kerak. Uning o'tkazilishi o'quvchilarga e'lon qilinishi lozim. Konferentsiya mavzusiga oid adabiyotlar ro'yxati hamda viktorina savollari tavsiya qilinishi yanada yaxshi. Konferentsiya mavzusi ga oid materiallar ixtiyoriy bo'lishi lozim. Tarix fani o'qituvchisi ma'ruzachilarga konsultatsiyalar uyushtirish ularga ma'ruza matni qanday bo'lishini, zarur adabiyotlar ro'yxati hamda ko'rgazmali qurollar tanlash haqida ko'rsatmalar berishi kerak. Tajribalar shuni ko'rsatayaptiki, 6-8 sinf o'quvchilarini tarix faniga oid adabiyotlarga bag'ishlangan konferentsiyalar qiziqтира, 9-sinf o'quvchilarni tarix fanidagi iqtisodiy-siyosiy muammolarga bag'ishlangan konferentsiyalarga o'quvchilar ancha qiziqadi. Keyingi vaqtlarda

konferentsiyalarni “amaliy o’yinlar o’tkazish” tarzida uyushtirish keng yoyilmoqda. Bunda konferentsiya qatnashchilariga jurnalist, elchi, korxona rahbari, broker, ilmiy xodim kabi rollarda chiqish tavsiya qilinadi. Bundayvaqtlarda o’qituvchi rahbarligida o’rtaga tashlanadigan savollar oldidan tuzib va ko’rib chiqilishi lozim. O’lkashunoslik mavzusiga bag’ishlangan konferentsiyalarda ham o’quvchilar faol qatnashadilar. Ular xilma-xil mavzu va muammolarga bag’ishlanishi mumkin. O’quvchilar o’zlari yashab turgan qishloq, aholi punkti yoki shaharga bag’ishlab ham konferentsiyalar uyushtirishi mumkin. Quyida “Osiyoning yangi industrial davlatlari” mavzusi bo’yicha uyushtirish mumkin bo’lgan konferentsiya rejasini keltiramiz. Mavjud tarixiy adabiyotlar asosida konferentsiya rejasi oldindan tuzilishi lozim.

1. Osiyoning yangi industrial davlatlari.
2. YaID iqtisodiy taraqqiyot modeli.
3. Janubiy Koreya, Singapur davlatlari va O’zbekiston o’rtasidagi hamkorlik
4. Indoneziya-O’zbekiston ishonchli hamkorlar.
5. Malayziya va O’zbekiston davlatlari o’zrtasidagi iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi

O’quvchilar mavzuga bag’ishlab konferentsiya jarayonida kinofilmlar namoyish qilishi, she’rlar o’qilishi, mehmonlarning chiqishlari bo’lishi kerak. Konferentsiyadan keyin har xil o’quvchi faoliyati baholanishi kerak. Shundagina darsdan tashqari ishlarga ularning qiziqishlari ortadi. Tarix haftaliklari sinfdan tashqari ishlarning yangi shakllaridan hisoblanadi. Tarix haftaliklari kompleks iadbirlardan iborat bo’lib, uning tarkibiga tarixiy kechalar, konferentsiyalar, tarixiy bilimlar, ko’rik tanlovlar, gazeta, referatlar tanlovi va hokazolar kirishi mumkin. Haftalik darslardan keyin, haftaning olti kuni jarayonida o’tkaziladi. Uning asosiy maqsadi tarixiy bilimlarni tavsiya qilishdan, ommalashtirishdan iborat. Haftalik uyushtirishdan asosiy maqsad maktabda tarix ta’limi va sinfdan tashqari ishlarning qanday tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Tarix haftaligi odatda maktabning o’quv tarbiya rejasi asosida uyushtiriladi.

Haftalik jarayonida quyidagi tadbirlar uyushtirilishi mumkin:

- tarix haftaligiga tayyorgarlik va uni o'tkazish rejasini tayyorlash;
- tarix fani bo'yicha referatlar tanlovi;
- devoriy gazetalar chiqarish;
- eng yaxshi gazetalar chiqarish;
- korxonlarga, ilmiy muassasalar va muzeylarga ekskurtsiya
- kinofilmlar namoyishi;
- tarixiy kechalar, o'yinlar o'tkazish
- tarixiy konferentsiyalar uyushtirish
- tarixchi olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

Tarix haftaligi tadbirlar qatoriga munozaralarni ham kiritish mumkin. Unda tarix fanidagi dolzarb masalalarni kiritish mumkin. Bunday muammoli masalalar bo'yicha munozara o'tkazishdan maqsad o'quvchilarga tarixiy bilimlarning ahamiyati va zarurligini ko'rsatishdan iborat. Munozaralar o'quvchilarda o'z fikr-mulohazalarini isbotlay olish, himoya qila olish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Tarix faniga oid kitob, maqola va boshqalar munozara manbai bo'lishi mumkin. Munozaralarda qo'yilgan muammoni isbotlay olish, mantiqiylik, o'zgalar fikrlarini hurmat qilish kabi xislatlar asosiy o'rin egallashi kerak.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tarix darslarida loyiha metodi asosida dars mashg'ulotlarini o'tkazishda o'quvchilarning tarixiy bilimlarini tahlil qilish, mustahkamlash uchun tarixiy klublarni tashkil qilish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ta'limning bu turi tarix o'qituvchilari va o'quvchilarining eng qiziqarli faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Klublar o'quvchilarning dam olish chog'ida ularning ilmiy bilimlarini to'ldirish uchun tuziladi. Tarix klublariga turli yoshdagi o'quvchilarni jalb qilish mumkin. Uning faolyaitiga turli soha mutaxassislarini taklif qilish maqsadga muvofiq. Tarix klublariga o'quvchilardan tashqari aholini ham jalb mumkin. Tarix klublarini maktabdan tashqari tashkilotlarda qilsa ham bo'ladi. Klubning tashkiliy tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin: klub raisi, klub a'zolari. Klub uchun nizom va nishon shart emas. Klublarda taxminan quyidagi yo'nalishlardagi

ishlar olib borilishi mumkin:

- tarixni sevuvchilar klubi
- qiziqarli uchrashuvlar klubi
- kino sayohatchilar klubi
- sayohat o'lkashunoslik klubi

Tabiatni sevuvchilar klubiga tarix faniga qiziquvchilar a'zo bo'lishi mumkin. Siyosiy va do'stlik klublariga jahon tarixiga qiziquvchilar bilan shug'illanuvchilar, chet tillarini biladigan va unga qiziqadiganlar birlashadilar. Qiziqarli uchrashuvlar klubida ilg'or ishchilar, olimlar, nodir kasb egalari bilan muloqotda bo'linadi. Yuqoridagi barcha klublar faoliyatiga ota-onlarini ham jalb qilish lozim. Ularni klublarning faxriy a'zolari qilib saylash ham mumkin.

Port folio: Guruhlarning loyiha bo'yicha qilgan barcha materiallari yig'ma jild (port folio) shakliga keltirilib, tarix o'qituvchisiga topshirildi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lafasov M. Jahon tarixi 1918-2013 yillar .Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik T.Turon-iqbol 2013 y.
2. Usmonov Q.“Akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o`quvchilari uchun mo`ljallangan O`zbekiston tarixi darsligi”. T. Sharq. 2013 y.
3. Usmonov Q.“Akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich o`quvchilari uchun mo`ljallangan O`zbekiston tarixi darsligi”. T. Sharq. 2013 y.
4. Novaya istoriya stran Evropa i Ameriki. Moskva-2002 g.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001 y., I-XII jild.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T. Sharq. 2001 y.
7. Hidoyatov. G.Jahon tarixi. Eng yangi davr. Birinchi qism (1914-1945) Toshkent-2000 y.
8. [www. Google.uz](http://www.Google.uz) www. Ziyonet.uz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi . T.: 1997 y.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998 y.
- 3.Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch .-T.: Ma'naviyat. 2008 y.
- 4.Karimov I.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- T.:“O'zbekiston”,2011 y.
- 5.Usmonov Q., Jo'rayev U., Ahmedov B. 5-sinf “Tarixdan hikoyalar”. T.O'qituvchi. 2011 y.
- 6.Sagdullaev A., Kostesskiy V. 6-sinf tarix darsligi.T.: O'qituvchi, 2013 y.
- 7.Muhammadjonov A.7-sinf O'zbekiston tarixi darsligi T.: O'qituvchi.2013 y.
- 8.Salimov O'.T., Sultonov F.E. 7-sinf Jahon darsligi. T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2013 y.
- 9.Usmonov Q., Jo'raev U., Norqulov N. 8-sinf O'zbekiston tarixi darsligi.T., O'qituvchi. 2011 y.
- 10.Jo'raev U., Farmonov R. 8-sinf Jahon tarixi darsligi. T.: Cho'lpon. 2010 y.
- 11.Tillaboyev S., Zamonov A. 9-sinf O'zbekiston tarixi T.: Sharq, 2010 y.
- 12.Lafasov M., Xoliqov E., Qodirova D., Jo'rayev U., 9-sinf Jahon tarixi. T.: O'qituvchi.2011 y.
- 13.Lafasov M. Jahon tarixi 1918-2013 yillar .Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik T.Turon-iqbol 2013 y.
- 14.Usmonov Q.“Akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan O'zbekiston tarixi darsligi”. T. Sharq. 2013 y.
- 15.Usmonov Q.“Akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan O'zbekiston tarixi darsligi”. T. Sharq. 2013 y.
- 16.Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU. 2003 y.
- 17.Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari.T., O'qituvchi, 1991 y.
18. Бекмуродов А.Ш., Голиш Л.В., Пулатов М.Е., Хажиева К. Н. Проектная технология обучения в вузе: Методическое пособие. - Т.: ТГЭУ, 2009 г.
- 19.Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. T. 2002 y.
- 20.Buyuk siymolar, allomalar.-T.: Meros.1-kitob, 1995, 2-kitob 1996, 3-kitob 1997 y.
- 21.Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” 2012 y.
- 22.Jabborov I. Antik davr ma'naviyat xazinası. T. 1996 y.

- 23.Yo'ldoshev J.G',Usmonov S.A.Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: "O'qituvchi", 2004 y.
- 24.Korovkin F.P. Qadimgi dunyo tarixi. T.O'qituvchi, 1993 y.
- 25.Колесникова И.А.,Горчакова-Сибирская М.П. Педагогическое проектирование. Учеб. Пособие для высш учеб. Заведений. М.:Академия,2008 г.
- 26.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T. "O'zbekiston", 2000 y.
- 27.Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash.//“Pedagogik mahorat”. 2003 yil 1-son
- 28.Misliboyev I, To'rayev A. Ta'lim texnologiyasini loyihalashning ayrim muammolari.// Xalq ta'limi jurnali 2001 yil,3-son
- 29.Немировский Н. История древнего мира. М., 2001 г.
- 30.Novaya istoriya stran Evropa i Ameriki. Moskva-2002 g.
31. Пахомова . Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. – М.: АРКТИ, 2003 г.
- 32.Rajabov R.Qadimgi dunyo xrestomatiyasi. T. Adib. 2013 y.
- 33.Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism). Toshkent, 1993 y.
- 34.Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. -T.: RTM, 2000 y. -46 b.
- 35.Tolipov O', Boltaboev S. Pedagogik texnologiya va uni loyihalash bosqichlari.
// DTS ishlab chiqish va tadbiq etish hamda kasbiy ta'limda uzviylikni ta'minlash muammolari Respublika ilmiy-amaliy anjuman: Tez.
- 36.Фаберман Б.Л., Мусина Р.Г. и др. Инструменты развития критического мышления. Т.: Минвуз, 2002 г.
- 37.Ходиев Б.Ю., Голиш Л.В. Способы и средства организации самостоятельной учебной деятельности студентов: Учебно-методическое пособие для студентов.-Т.:ТГЭУ, 2006 г.
- 38.Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T. 2001 y.
- 39.Shamsutdinov R. Vatan tarixi II tom. T. Sharq. 2011- yil.
- 40.Shamsutdinov R. Vatan tarixi III tom. T. Sharq. 2011- yil
- 41.Shamsutddinov R. , Karimov Sh., Ubaydullayev O'.Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. T., «O'qituvchi», 2009 y.
- 42.Shamsutddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'.Vatan tarixi.Uchinchi kitob. T., O'qituvchi. 2009 y.

- 43.O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi. -T.: 1996 y.
- 44.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001 y., I-XII jild.
- 45.O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T. Sharq. 2001 y.
- 46.Hidoyatov. G.Jahon tarixi. Eng yangi davr. Birinchi qism (1914-1945) Toshkent-2000 y.
- 47.www. Yandex.ru, www. Google.ru, www. Google.uz, www. Ziyonet.uz.